

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta  
maxsus ta'lim vazirligi**

**Toshkent moliya instituti**

**Baymuratov Tursunbay Maxkambaevich  
Radjabov Umurzak Ablakulovich**

# **SOLIQ MENEJMENTI**

**o'quv qo'llanma**

**Toshkent  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2005**

**Baymuratov T.M., Radjabov U.A.**  
Soliq menejmenti. O'quv qo'llanma, T.:  
«IQTISOD-MOLIYA», 2005. -107 b.

Ushbu qo'llanmada iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida soliq menejmentini rivojlantirish strategiyasi va taktikasi, soliq tizimini optimallashtirish tamoyillari, shuningdek, turli darajadagi soliq munosabatlarini boshqarishni samarali tashkil etish masalalari yoritilgan.

O'quv qo'llanma iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari, «Soliqlar va soliqqa tortish» mutaxassisligi bo'yicha ilmiy tadqiqotchilar, aspirantlar hamda o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

В данном учебном пособии рассматриваются стратегия и тактика развития налогового менеджмента, принципы оптимизации налоговой системы, а также, эффективные пути управления этой системой в условиях дальнейшей либерализации экономики.

Учебное пособие предназначено для студентов экономических высших учебных заведений, изучающих курс налоги и налогообложение, а также рассчитан для научных работников, аспирантов и преподавателей.

Text-book described tax strategy and tactic in the transfer to the market system, efficiency of tax system, also managing of this system.

This text-book intended for students of higher education and aspirants and teachers which are study tax and tax payments.

**Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengash qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.**

**Taqrizchilar:**iqt.fanlari doktori, prof. E.J.Yusupov  
iqt. fanlari nomzodi, dots. A.S.Jo'raev

BBK

65.9(5u) 271

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi kutubxonasi, 2005 yil.

## KIRISH

Bozor munosabatlari sharoiti iqtisodiyotning barcha sohalarida band bo'lgan mutaxassislardan chuqur bilim, ko'nikma va mahorat sifatlarini puxta egallashni talab qilmoqda. Kadrlar tayyorlash sohasida davlatimiz siyosati ham har bir shaxsni kasbiy-intellektual, ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk, raqobatbardosh etib shakllantirishni nazarda tutadi. Har bir kasb o'ziga xos xarakter va mazmunga ega bo'lganligi uchun u shunga mos bo'lgan kasbiy malakani talab qiladi.

Har qanday iqtisodiy faoliyat rivojlanishiga soliq munosabatlari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan ularni to'g'ri tashkil etish va boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini erkinlashtirishda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ko'p jihatdan amaldagi soliq tizimining qanday darajada boshqarilishiga bog'liqligini ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda soliq munosabatlarini o'rganish va ularning optimallashuvini ta'minlashda «Soliq menejmenti» fanining o'rni beqiyosdir. Soliq tizimi, xususan, soliq boshqaruvini chuqur o'rganish, tahlil etish va tegishli xulosalar chiqarish orqali uning takomilini ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda soliq menejmentiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, ushbu faoliyat bo'yicha iqtisodiyot sub'ektlariga alohida xizmatlar ko'rsatuvchi butun bir infratuzilma shakllantirilgan.

«Soliq menejmenti» Davlat ta'lim standartlarining o'quv rejalaridagi nisbatan yangi fan hisoblanadi. Aynan ushbu fan soliq munosabatlarini boshqaruv jarayonini, uning bosqichlari va tarkibini o'rganish asosida soliq tizimini boshqarishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bugun har bir mutaxassislikda, ayniqsa, «Soliqlar va soliqqa tortish» bakalavriat ta'lim yo'nalishi va uning bazasida tayyorlanadigan magistratura mutaxassisliklarida ta'lim olayotgan talabalar soliqlarning iqtisodiy-huquqiy

kategoriya ekanligidan kelib chiqib, soliq munosabatlariga daxldor boshqaruv ilmini bilishi, o'z faoliyati bilan aloqador bo'lgan turli jarayon, munosabatlarni boshqarish asoslarini o'zlashtirishi talab etiladi. Ular nafaqat o'z burch va mas'uliyatlarini, balki davlat hamda boshqa iqtisodiyot sub'ektlarining manfaatlariga aloqador bo'lgan me'yoriy-huquqiy majmuani mukammal o'zlashtirgan bo'lishlari lozim.

Mazkur sifatlarni shakllantirishda bir tomondan, ijodiy izlanish, ta'limtarbiya muhim bo'lsa, ikkinchi tomondan, mazkur sohadagi mavjud boshqaruv tizimining mazmun-mohiyati, tamoyillarini anglash ham asosiy omil hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, ushbu o'quv qo'llanmada soliq munosabatlarini boshqarishning optimal tizimini qaror toptirish shakl va uslublari bayon qilingan.

Soliq menejmenti nihoyatda keng doirani o'z ichiga olgan, hamisha takomildagi fandir. Soliq munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini mukammal hisobga olish, umumiylit va xususiylik o'rtaqidagi bog'lanishga jiddiy e'tiborni qaratish, har bir aniq holatga aniq, ijodiy yondashgan holda soliq boshqaruvining o'ziga xos qirralarini puxta egallah soliq menejmenti muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan ushbu qo'llanmada soliq menejmentining mazmun-mohiyati, uni tashkil etish asoslari va amalga oshirish jarayoni bosqichma-bosqich yoritilgan. Shuningdek, qo'llanmada soliq munosabatlarini boshqarish borasida klassik qarashlar va nazariyalar ham o'z ifodasini topgan, soliq menejmentining bayon etilgan, uning sub'ektlari ko'rsatib berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmaning birinchi nashrida ma'lum kamchiliklar bo'lishi ham tabiiy holdir. Shu sababli, mualliflar bu borada taklif-mulohazalarini bildirgan soha mutaxassislariga oldindan o'z minnatdorchiliklarini izhor etadi.

# **I bob. SOLIQ MENEJMENTI FANINING PREDMETI, FUNKTSIYA VA USULLARI**


## **1.1. SOLIQ MENEJMENTINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

Soliq tizimining shakllanishi va uni rivojlantirish zaruriyati, shuningdek, soliq menejmentini yo'lga qo'yish masalasi - mamlakatimizda erkinlashtirish strategiyasining muhim sharti sanaladi. Shu jihatdan olib qaraganda bugungi kunda, soliqlar va soliq tizimini nazariy jihatdan o'rganish va tahlil qilish, soliqlarni amaliyotda qo'llanilishi, xususan, soliq boshqaruvi, uning vazifalarini o'rganish hamda samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Boshqaruvning, xususan, soliq menejmentining vazifasi ob'ekt-sub'ekt munosabatlari tizimini qaror toptirish (1-chizma) jarayonida vujudga keluvchi boshqaruvchi va boshqariladigan tizimlar o'rtaсидаги aloqa doimiy ravishda muvofiqlashtirilib turishini ta'minlashga qaratilganligi e'tiborga molikdir.

### **1-chizma.**

#### **Boshqarish ob'ekti va sub'ekti o'rtaсидаги munosabatlar**



Aynan mana shu muvofiqlashtirib turish boshqaruvning asosini tashkil etadi va unda u yoki bu ob'ektni boshqarishga oid aniq vazifalarni bajarish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi. Boshqaruv - jarayon sifatida o'zining funktsiyalarida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda, "funktsiya" - lotincha "functio" (ijro qilmoq, bajarmoq) so'zidan olingan bo'lib,

«biron kimsa yoki narsaning ish faoliyat doirasi, vazifasi», -degan ma'nolarni bildiradi.<sup>1</sup>

**Boshqaruv  
funktsiyalari-**

faoliyat doirasi va vazifasi sifatida sub'ektning ob'ektga aniq ta'sir etish yo'nalishlarini o'zida aks ettiradi.

Boshqarish - ko'p qirrali va murakkab tushuncha bo'lib, uni muhim belgilariga ko'ra, turkumlab o'rganish mazkur fanning maqsadiga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq menejmenti asoslarini puxta egallab olish orqali soliq sub'ektlari: soliq yig'uvchi va soliq to'lovchi o'z manfaatlariga mos keladigan soliq munosabatlarini tashkil etish, samarali soliq boshqaruvini amalga oshirish uchun nimalarni qilish lozimligini anglab etishi, to'g'ri yo'l topa bilishi mumkin bo'ladi.

- Soliq menejeri quyidagilarni, ya'ni:
  - soliq menejmentining mazmuni va mohiyatini;
  - soliq menejmentining tarkibiy qismlarini;
  - bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli soliq boshqaruvini amalga oshirish yuzasidan mas'uliyatidagi vazifalarni uddalashni;
  - soliq munosabatlarini boshqarish borasida to'plangan ko'nikma va tajribani;
  - soliq tizimining mazmun-mohiyatini mukammal bilishi talab etiladi.

Soliq menejmenti fanini o'qitishning maqsadi, talabalarda uning muammolarini bilishga bo'lган intilishni kuchaytirish, soliq boshqaruvi bo'yicha amaliy-tashkiliy faoliyatga ishtiyoq uyg'otishga qaratilgandir. Bugungi talaba - ertangi kunda soliq boshqaruvi tizimi xodimi, kichik va o'rta, katta jamoalar rahbari, korxona yoki firmada soliq munosabatlarini boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiquvchi va ularni amalga oshiruvchi mutaxassis bo'lib etishadi.


Soliq menejmenti fani - bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali soliq boshqaruvini amalga oshirishga ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlar, omillarni

<sup>1</sup> Qarang. O'zbek tilining izohli lug'ati. -M.: Rus tili, 1981. T. 170 - bet.

o'rganadi(2-chizma). Ushbu fanning vazifasi texnologiyalarni keng qo'llagan holda boshqaruvning eng maqbul, samarali ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgandir.

## 2-chizma

### Soliq menejmenti fanining predmeti, funktsiya va usullari



Bir tomonidan, soliq menejmenti hozirgi zamон iqtisodiy rivojlanish yo'lidagi barcha qiyinchiliklarni, ijtimoiy - psixologik muammolarni ishbilarmonlik ruhidagi yondashuv orqali hal etish mumkinligini o'rganadi.

Ikkinchidan, u har qanday soliq munosabatlari sharoitida ham tanlov asosida eng maqbul qarorni qabul qilish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish haqidagi nazariy-amaliy bilimlar majmuasi sanaladi.

**Soliq menejmenti fani** - soliqlarni hisoblash va to'lash jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning barcha jihatlarini boshqarish, shuningdek, samarali soliq boshqaruvi negizida daromad(foyda)ni yanada ko'paytirish haqidagi nazariy-amaliy bilimlar majmuasini o'rganadi.

Mazkur fanning tarkibiy qismlari quyidagilardir:

- soliq menejmenti ob'ektlari va sub'ektlari orasidagi munosabatlar va ularni boshqarish;
- soliq menejmenti tamoyillari va usullari;
- soliq menejmenti faoliyatining o'ziga xos jihatlari;
- boshqaruv tizimida soliq menejerining o'rni va roli;
- soliq munosabatlarini boshqarish;
- soliq menejmentida qarorni qabul qilish modellari va usullari;
- soliq menejmenti qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;
- samarali soliq boshqaruvini tashkil etish asoslari;
- o'zini-o'zi boshqarish mexanizmini qaror toptirish va hokazolar.

Soliqlar munosabatlarini boshqarish davlat boshqaruvining barcha darajalariga daxldor bo'lgani holda bir qator o'ziga xoslikka ham egadir.

Soliq menejmenti, birinchidan, bu soliqlar tizimi, davr va kenglikda barcha soliq munosabatlarini qamrab olgan uzlusizlik xarakteriga ega bo'lgan jarayon hisoblansa, ikkinchidan, u ma'lum iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, natijalarga erishish uchun soliqlar va soliqqa tortishga maqsadli ta'sir etish omili hamdir. Uchinchidan, bu jarayon talab etiladigan natijaga erishish uchun «rejalashtirish - tashkillashtirish - muvofiqlashtirish - motivlash - nazoratni ta'minlash» ishiga xizmat qiluvchi talablar tizimini o'zida aks ettirgan maqsadlar hamda vazifalar majmuasi, shuningdek, ularning bajarilishini ta'minlash jarayonidir.

Soliq tizimi iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida bo'lgan doimiy takomildagi dinamik tizim hisoblanadi. Mazkur tizimning ilmiy-amaliy muammolarini hal etish, ayni vaqtda, soliq boshqaruvini takomillashtirishni talab etadi. Soliq munosabatlari boshqaruv ob'ekti sifatida mavjud ijtimoiy reallikni o'zida aks ettirgan iqtisodiy kategoriyadir.

Soliqlar o'zida mujassam bo'lgan ichki iqtisodiy resurs orqali davlat daromadlarini shakllantirish omili bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Ular abstrakt muloqot va anglashlar orqali shakllantiriladigan hamda qayd etiladigan hodisadir. Soliqlar tizimi esa, o'zida


nazariy jihatdan singdirilgan «ichki imkoniyatlarni» iqtisodiy faoliyat hisobidan amalga oshirishning amaliy shakl va munosabatlar majmuasi hisoblanadi.

## 1.2. SOLIQ MENEJMENT FANINING FUNKTSIYALARI

Soliq menejmenti negizini ob'ekt-sub'ekt munosabatlari tizimi tashkil etadi, ular esa, uzlusiz ravishda o'zaro ta'sirga ega bo'lgan muhitni qaror toptiradi (3-chizma), uning ierarxiyalı kesimida vujudga keluvchi boshqaruvchi va boshqariladigan tizimlar o'rtasidagi aloqani doimiy ravishda muvofiqlashtirib turish talab etiladi.

**3-chizma.**

### **Soliq menejmenti ob'ekti va sub'ekti o'rta sidagi munosabatlar**



Aynan mana shu muvofiqlashtirib turish soliq menejmenti funktsiyalarining asosini tashkil etadi va unda u yoki bu soliq boshqaruviga oid aniq vazifalarni bajarish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi. Soliq menejmenti - jarayon sifatida o'zining funktsiyalarida namoyon bo'ladi.

**Soliq menejmenti funktsiyaları** - faoliyat doirasi va vazifasi sifatida soliq boshqaruvi sub'ektining soliq boshqaruvi ob'ektiga aniq ta'sir etish yo'naliшhlarini o'zida aks ettirish hisoblanadi.

Soliq menejmenti funktsiyalari ko'p qirrali va murakkab bo'lib, ularni muhim belgilariga ko'ra turkumlab o'rganish (4-chizma) mazkur fanning maqsadiga muvofiqdir.

Soliq menejmenti funktsiyalarining mazmun-mohiyati, turkumlanishi va tizimini o'rganish orqali soliq munosabatlarida samaradorlik ortadi.

Soliq menejmenti funktsiyalari turkumlarida va bosqichlarida soliq munosabatlarining o'ziga xos tomonlari mavjud bo'ladi. Shundan kelib chiqib, soliq menejmenti fanining funktsiyalarini, ularning soliq munosabatlaridagi o'mini o'rganish orqali soliq boshqaruvini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati yanada kengayadi.

#### **4-chizma.**

##### **Soliq menejmenti funktsiyalarining turkumlanishi**

<b>№</b>	<b>Mazmuni va mohiyatiga ko'ra</b>	<b>Soliq menejmenti funktsiyalarining turkumlanishi</b>
I	Qo'llanilish ko'lamiga qarab	- umumiy (asosiy) funktsiyalar - aniq funktsiyalar
II	Faoliyat turiga qarab	- iqtisodiy funktsiyalar - ijtimoiy funktsiyalar - tashkiliy funktsiyalar
III	Ob'ektni qamrab olishiga qarab	- hududiy funktsiyalar - tarmoq funktsiyalari
IV	Mehnat taqsimoti belgisiga qarab	-menejerning funktsiyalari -bo'ysunuvchi(ijrochi)ning funktsiyalari

Soliq menejmenti fanining vazifasi yangi texnologiyalarni keng qo'llagan holda soliq munosabatlarining eng maqbul-samarali ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishdir.

Soliq sub'ektining hatti-harakatlari zamirida doimiy uning uchun dasturiy maqsad, mayl mujassam bo'ladi, unga ko'ra, sub'ektning u yoki bu munosabat holatidan ta'sirlanishi yuz beradi. Bunda uning xarakteriga xos belgilarni aniq bilib olish mumkin. Mazkur jarayon soliq menejmenti fanining ilmiy tahlil predmetiga aylanishi zarur. Fanning bunday tizilmalashuvi soliq

munosabatlarida teranlik, ob'ektivlik va ishonch negizida jiddiy tashkiliy - boshqaruv ishlarini olib borishning asosi bo'ladi.

Shu o'rinda, «munosabat» kategoriyasini o'rganish foydalidir. Munosabat - faoliyat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni bo'lib, sub'ektlar o'rtasidagi birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan o'zaro bog'lanishlarning murakkab majmuasi hisoblanadi.

Soliq boshqaruvida bunday birgalikdagi jarayonni samarali tashkil etish, o'zaro hamjihatlik asosida munosabatlarni qurish va ularni muvofiqlashtirish qonuniyatlarini bilish orqali malaka-ko'nikmani rivojlantirib borish soliq menejmentini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, soliq menejmenti fanining tamoyillari har qanday soliq boshqaruvi jarayonining o'zagi sifatida, uning murakkab hamda o'zaro bog'liq funktsiyalari faoliyatini yo'lga qo'yishning nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan dolzarb vazifalarni bajaradi (5-chizma).

## 5-chizma.

### «Soliq menejmenti» fanining tamoyillari va ularning turkumlanishi

«Soliq menejmenti» fanining tamoyillari	
mas'uliyat va javobgarlik;	yakkaboshchilik;
harakatning yaxlitligi;	sub'ektlar manfaatlari mosligi;
markazlashuv;	korporativ ruhni shakllantirish;
adolatlilik;	tashabbusni rag'batlantiruv;
ierarxiya darajalarida o'zaro yaxlit aloqalar zanjiri mavjudligi.	
«Soliq menejmenti» fani tamoyillarining turkumlanishi	
maqsadlarni shakllantirish;	tashkiliy faoliyatni qurish;
strategik rejalshtirish;	qarorlar qabul qilish;
motivatsiyani amalga oshirish;	nazoratni yo'lga qo'yish;
soliq boshqaruvini muvofiqlashtirish.	

Soliq munosabatlarining aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi o'zaro aloqadorlik va ta'sir darajasi soliq menejmentining samarali amalga oshirilishida muhim o'ringa egaligini ta'kidlash lozim.

### **1.3. SOLIQLARNI BOSHQARISH VA SOLIQ MENEJMENTI**

Soliq menejmenti o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir: birinchisi, soliq tizimining o'zini boshqarish bo'lsa, ikkinchisi, jamiyatdagi munosabatlarning bazisi bo'lgan, metasotsial tizim sifatida, soliqqa tortishni boshqarish hisoblanadi. Bu o'rinda, soliq menejmentining o'ziga xos tomonlari yaqqolroq ko'zga tashlanadi: birinchidan, u soliqlar va soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti jabhasi sifatida mazkur soha muammolarining echimini ishlab chiqish bilan uzviy bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, soliq boshqaruvi infratuzilmasi samarali shakllantirilishi va rivojlantirilishini ta'minlamasdan turib, shuningdek, uning boshqa jihatlarining o'zaro ta'sirisiz soliq tizimining muammolarini hal etish mumkin emas. Uchinchidan, bu jarayon «boshqaruv-rahbarlik-muvofiqlashtirish» omili sifatida namoyon bo'ladi.

Soliqlarning asl mazmun - mohiyati, iqtisodiy sub'ektlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish orqali ular funktsiyalarini jamiyat rivojlanishidagi o'rnida o'z aksini topadi. Davlatning moliya-byudjet tizimi tarkibida soliqlar ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish jarayoni hamda unga ta'sir etuvchi omillarni o'zida to'liq aks ettirgan moliyaviy kategoriya bo'lib, ular moliya-soliq siyosati orqali boshqariladi. Soliq menejmenti soliq munosabatlarini boshqarish jarayoni bo'lib, soliqlarni hisoblash va to'lash bilan bog'liq faoliyat majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Soliqlarni muvofiqlashtirish murakkab, ko'p omilli hamda keng ko'lamli ta'sir etish jarayoni bo'lib, u o'zida ushbu munosabat sub'ektlariga ta'sir etish yo'nalishlari va mexanizmlari orqali jamiyat oldiga qo'yilgan iqtisodiy-ijtimoiy masalalar hal etilishini ta'minlaydi. Aynan soliqlarning bu roli, davlatning ehtiyojiga ko'ra, ob'ektiv ravishda soliq tizimining ustuvor strategik ahamiyatga molik bo'lgan jabhasi sanaladi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlari uchun pul mablag'lari shaklidagi qiymatni qayta taqsimlash jarayonini o'zida aks ettirgan majburiy va

qaytimsiz to'lovlar sifatida iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish - soliq menejmentining asosini tashkil qiladi. Shunga ko'ra, soliq menejmenti - tarkiban o'ziga xos bo'lgan murakkab-maxsus, shuningdek, maqsadga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy jarayon hisoblanadi.

## **1.4. SOLIQ MEXANIZMI- SOLIQ MUNOSABATLARINI BOSHQARISH USULLARI YIG'INDISI SIFATIDA**

Soliq menejmenti soliq mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Soliq mexanizmi - soliq munosabatlarini boshqarishni tashkil etish usullari yig'indisi deb atash mumkin. Lekin bu ta'rif soliq mexanizmining tashkiliy-huquqiy mazmun-mohiyatini o'zida to'liq aks ettira olmaydi.

Soliq mexanizmi - davlat, jamiyat va alohida sub'ektlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish yuzasidan markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini tashkil etish bilan bog'liq ob'ektiv munosabatlarni boshqarish usullari yig'indisi hamdir.

Soliq mexanizmi - iqtisodiy kategoriya sifatida, soliqlardan farqli o'laroq, kishilar ongli faoliyatining natijasi sifatida, jamiyat ustqurmasiga tegishli bo'lib, uni amalga oshirish sub'ektiv mohiyat kasb etadi. Soliq mexanizmi - keng tushuncha bo'lib, uni soliq munosabatlarining tarkibiy elementlari majmuasi sifatida o'rghanish o'rnlidir.

Soliq ob'ekti, sub'ekti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliqni to'lash muddatlari, soliq bo'yicha imtiyozlar va jarimalar, soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi, soliq to'lovchilarning mas'uliyatlari, soliq nazoratini olib borish tartibi kabilar soliq mexanizmining muhim tarkibiy elementlari hisoblanadi. Shunga ko'ra, soliq mexanizmi - davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llaniladigan qonunlar, soliqqa tortishning tashkiliy - huquqiy

boshqaruv usullari yig'indisini o'zida aks ettiradi.

Soliq munosabatlarining tarkibiy qismlari, shakl, tur va usullari yig'indisi soliq mexanizmi asosini tashkil etadi. Soliq mexanizmining tarkibiy qismlari miqdor jihatdan o'lchov birliklari o'rnatish yo'li bilan, boshqacha qilib aytganda, u soliq ob'ekti va sub'ekti, soliq stavkasi va soliqlarni undirib olish muddati, soliqlar bo'yicha imtiyoz va jarimalarni qo'llash orqali harakatga keltiriladi.

Soliq mexanizmi - davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil qilish usullari yig'indisi bo'lib, u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish yuzasidan davlat tomonidan qo'llaniladi.

Davlat soliq munosabatlarini tashkil etish usullarini o'rnatadi va ularga mos qonunlar majmuasini yaratadi hamda kuchga kiritadi. Xususan, davlat soliq qo'mitasi amaldagi soliq qonunchiligi asosida hamda o'zining vakolat doirasida har bir soliq turlari bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqadi.

Soliq mexanizmining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonun, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa soliqqa oid me'yoriy hujjatlar majmuasidan iborat bo'lib, ularda umummilliy va davlat manfaatlari o'z aksini topgandir.

Soliq mexanizmining asosiy tarkibiy qismlari yillar davomida birmuncha o'zgarishsiz bo'lsa (masalan, soliq turlari), uning elementlari esa, (masalan, soliq stavkasi,

imtiyozlari) har yili o'zgartiriladi.

Soliq mexanizmi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda foydalaniladigan asosiy vosita sifatida byudjet taqchilligini bartaraf qilishga qaratilganligi e'tiborga molikdir. Aynan, davlat bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish, tadbirkorlikni rivojlanishiga shart-sharoit yaratib berish va ayni vaqtda, aholining kam daromadli qatlaminii ijtimoiy himoyasini ta'minlashning muhim vositasi sifatida soliq mexanizmidan foydalanadi.

Soliq mexanizmi ko'proq fiskal ahamiyat kasb etishini e'tiborga olgan holda uning asosiy vazifasi davlat byudjeti daromadini shakllantirish hisoblanadi. Bu borada quyidagilar asos qilib olinishi lozim:

-davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish xarajatlarini pul bilan ta'minlash;

-davlat byudjeti taqchilligini imkon qadar kamaytirish.

Ma'lumki, byudjet taqchilligini kamaytirishga nafaqat byudjet xarajatlarini qisqartirish, balki funktional soliq mexanizmidan foydalangan holda byudjet daromadlarini ko'paytirish hisobiga ham erishish mumkin.

Soliq mexanizmi bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodiy ahamiyatini hisobga olgan holda, soliq mexanizmi davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarishning asosiy vositasi sifatida quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatish. Bu vazifa mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish, xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlashga asoslanadi.

- mulkchilik va xo'jalik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar barcha soliq to'lovchilar uchun bir xil imkoniyat yaratib berish. Bu borada soliq mexanizmi universallashishi talab etiladi. Bundan tashqari mavjud soliq mexanizmi soliq to'lovchi sub'ektlarga, xo'jalik faoliyatining sohasi va iqtisodiyot tarmog'idan qat'iy nazar, me'yoriy rivojlanish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

- yuridik va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish. Soliq mexanizmi soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish va jarimalar undirish orqali ularning xo'jalik faoliyatiga ma'lum darajada iqtisodiy jihatdan ta'sir etishni nazarda tutadi.

- tashqi iqtisodiy faoliyatni hamda eksportni rag'batlantirish. Soliq mexanizmining bu vazifasi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni kengroq jalg qilish va xalqaro bozorga chiqish maqsadida mahsulot eksportini etarli darajada rag'batlantirishga doir imtiyozlarni o'zida namoyon etishi lozim.

- soliq to'lovchilarga ma'lum davrda ba'zi imtiyozlar berish va zarur paytda jarimalar solish orqali ular faoliyatiga ta'sir ko'rsatish. Soliq mexanizmining ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi orqali mamlakatda umumiqtisodiy o'sish ta'minlanadi.

Soliq mexanizmi yuqoridagilardan tashqari tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza etishni rag'batlantirish, shuningdek aholi

pul daromadlarini oshirish yoki qisqartirish orqali ularning to'lov qobiliyatiga ta'sir etish kabi muhim vazifalarni ham bajarishi lozim.

Soliq mexanizmining iqtisodiy ahamiyatini o'zida mujassam etgan quyidagi:

- aholining har xil ijtimoiy guruhlari daromadlarini tartibga solish. Soliq stavkasi miqdori shunday optimal darajada bo'lishi, ya'ni barcha ijtimoiy guruhlar uchun uning miqdori yana ham ko'proq daromad olish tashabbusi va manfaatiga zid bo'lmasligi kerak;

- aholining kam daromadli qismini keskin qashshoqlashishiga to'siq bo'lib xizmat qilish;

- demografik siyosat talablarini hisobga olgan holda har xil imtiyozlar berish kabi vazifalari ham to'liq bajarilishi muhimdir.

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbasi hamda iqtisodiyotni boshqarishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham soliq mexanizmi keng qamrovli, ayni paytda, iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchi bo'lishi lozim.

Iqtisodiyotni boshqarish ikki xil shaklda amalga oshiriladi:

- ma'muriy boshqarish;
- iqtisodiy boshqarish.

Soliq menejmentining bozor munosabatlari sharoitiga mos keluvchi asosiy usuli, iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatini ularning moliyaviy natijalariga bog'liq qilib qo'yishdan iborat.

Soliq stavkalariga o'zgartirishlar kiritish, soliqlar bo'yicha imtiyozlar hamda jarimalar mexanizmidan foydalanish, ba'zi bir soliqlarni joriy etish, ayrimlarini bekor qilish va boshqa omillar yordamida davlat alohida olingan tarmoq yoki iqtisodiyot sohasi rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi.

## **1.5. IQTISODIYOTNI SOLIQLAR ORQALI BOSHQARISHNING AHAMIYATI**

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishning asosiy maqsadi xo'jalik yuritish uchun qulay sharoit yaratib berish va sub'ektlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, ushbu maqsadlarga erishish uchun qo'yidagi usullardan foydalaniladi:

- soliq tushumlari hajmini o'zgartirish;
- soliqqa tortishning shakl va usullarini o'zgartirish;
- soliq stavkalarini o'zgartirish, ularni tabaqalashtirish;
- soliq imtiyozlaridan foydalanish;
- soliqqa tortilishi lozim bo'lgan ob'ektlarni o'zgartirish;
- jarimalar qo'llash va boshqalar.

Davlat iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solishga makro va mikroiqtisodiy darajada ta'sir etadi. Makroiqtisodiy darajada, soliq stavkasiga o'zgartirish kiritish orqali inflyatsiyani chegaralash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarining hududlararo mukammal joylashishini tartibga solish, mehnatga layoqatli aholini ish bilan band etish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash kabi maqsadlarga erishiladi. Mikroiqtisodiy darajada esa, sub'ektlarning moliyaviy holatiga ta'sir etish, ularning investitsiya faoliyatini rag'batlantirish mumkin bo'ladi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishda soliq mexanizmi elementlaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Mazkur elementlardan, boshqaruvning samarali chorralari sifatida, soliq stavkalari, soliq imtiyozlarini o'zgartirish kabilarni alohida qayd etib o'tish lozim.

## **1.6. SOLIQ MENEJMENTI FANINING TURLICHA YONDASHUV VA USULLARI**

Soliq menejmenti fanining tadqiqot usullari soliq munosabatlarini boshqarishning barcha jihatlarini ilmiy-amaliy asosda o'rganish, tahlil qilishga qaratilgandir. Mazkur fan voqelikni bilishga qaratilgan tadqiqot jarayonida umumiqtisodiy usullarni qo'llaydi (6-chizma). Mazkur tadqiqotning boshlang'ich bosqichida soliq menejmenti ob'ektini har tomonlama aks ettiruvchi va uni imkonni boricha to'liqroq tahlil etishga yordam beruvchi ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi hamda u baholanadi. Bu turkum munosabatlar soliq menejmentining turli darajadagi voqeliklarga daxldor bo'lishi ham mumkin.

Soliq menejmenti fanining yuqorida sanab o'tilgan ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan yondashuv va usullaridan o'zaro bog'liq holda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

## **1.7. SOLIQ MENEJMENTI FANINING BOSHQA FANLAR BILAN O'ZARO ALOQADORLIGI**

Soliq menejmenti ko'p qirrali va murakkab, o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayonlar tizimidan tashkil topgandir. Shundan kelib chiqib, soliq menejmentini yaxlit tizim sifatida takomillashtirish, bir tomondan, samarali soliq menejmentini amalga oshirish bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqaro andozalar darajasida kasbiy mahoratga ega bo'lgan soliq menejerlarini har tomonlama etuk bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

Ushbu holat «Soliq menejmenti» fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini zarurat sifatida namoyon qiladi. «Soliq menejmenti» fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari hozirgi sharoitda iqtisodiy, ilmiy va boshqa bilimlar sohasida erishilgan mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalangan holda soliq munosabatlarini boshqarishni yanada samarali tashkil etish, uning o'ziga xos qonuniyat, tamoyil va mexanizmlarini to'laroq o'rghanishga qaratilgandir.

## **6-chizma.**

### **Soliq menejmenti fanining tahlil usullari**

<b>№</b>	<b>Tahlil usullari</b>	<b>Ularning mazmuni</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>
1	Tizilmali yondashuv	<ul style="list-style-type: none"> <li>* menejment ob'ekti yaxlit tizim tarzida o'rganiladi. Bu yondashuv turlicha bo'lishi mumkin:</li> <li>* tizilmali-majmuali</li> <li>* tizilmali-funktsional</li> <li>* tizilmali-tarkibiy</li> <li>* tizilmali-kommunikatsion</li> </ul>
2	Majmuali (kompleksli) yondashuv	<ul style="list-style-type: none"> <li>* menejment ob'ekti boshqa ob'ektlar bilan o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda o'rganiladi.</li> </ul>
3	Tarkibiy yondashuv	<ul style="list-style-type: none"> <li>* menejment ob'ekti tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganiladi.</li> </ul>
4	Vaziyat (situatsiya)li yondashuv	<ul style="list-style-type: none"> <li>* menejment ob'ektining aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab, boshqarish usullari qo'llaniladi.</li> </ul>
5	Integratsion yondashuv	<ul style="list-style-type: none"> <li>* menejment ob'ekti usullar (vaziyatli, majmuali, tarkibiy yondashuvlar)ni yaxlit qo'llash yordamida boshqariladi</li> </ul>
6	Modellashtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>* menejment ob'ektini boshqarish bo'yicha turli jadval, grafik, chizma, diagramma va boshqa materiallar tayyorlanadi.</li> </ul>
7	Iqtisodiy matematik yondashuv	<ul style="list-style-type: none"> <li>* eng ma'qul qarorni qabul qilish maqsadida matematik usul va hisoblash texnologiyalaridan keng foydalilaniladi.</li> </ul>
8	Kuzatish usuli	<ul style="list-style-type: none"> <li>* menejment ob'ekti to'g'risidagi ma'lumotlarni rejali, ilmiy asosda to'plash orqali baza yaratiladi. Ular sifat va son jihatdan tahlil etiladi.</li> </ul>
9	Tajriba (eksperiment) usuli	<ul style="list-style-type: none"> <li>* soliq menejmenti jarayonida ob'ektga nisbatan namunaviy, tajribadan o'tgan usullar qo'llaniladi.</li> </ul>
10	Sotsiologik kuzatuv usuli	<ul style="list-style-type: none"> <li>* soliq munosabatlarini samarali boshqarish maqsadida turli anketali so'rov, test va boshqa baholashlar o'tkaziladi.</li> </ul>

Soliq menejmenti fani bir qator fanlar bilan uzviy bog'liqidir (7-chizma).


Soliq menejmenti fani barcha fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'z mavzui darajasida tadqiqotni amalga oshiruvchi, shuningdek, boshqa fanlarning xulosalariga tayanib, bozor munosabatlari sharoitida soliq munosabatlarini

boshqarishni yuqori saviyada va yanada samarali olib borishga oid nazariy - amaliy bilimlarni beruvchi fandir.

## 7-chizma.

### Soliq menejmenti fanining boshqa fanlar

#### bilan aloqadorligi



Masalan: soliq menejmenti va huquqshunoslik fanlari

o'zaro chuqur aloqada bo'lib, bu aloqadorlikni ko'rsatuvchi qator dalillar keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, soliq menejmentida, ob'ekt-sub'ekt munosabatlarini, soliq munosabatlarini boshqarishni o'rganish jarayonida, albatta, qator qonun, qarorlar majmuasi asosida, ya'ni huquqiy me'yordarga amal qilgan holda, uning u yoki bu ob'ektiga oid aniq vazifalarni bajarishi yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Umuman, soliq menejmenti yoki uni o'rganayotgan har bir mutaxassis huquqiy bilimlarni puxta egallashi, ularga har tomonlama amal qilishi orqaligina mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti rivojiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladi. Bugungi kunda soliq menejeri

nafaqat o'z sohasini puxta bilishi, balki yaxshi tashkilotchi, ayni vaqtida, huquqiy bilimlarning ham sohibi bo'lishi zarur.

Mazkur fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik iqtisodiy demokratik tamoyillarga asoslangan sog'lom raqobatni rivojlantirish, eng muhimi, tashkiliy faoliyatning huquqiy jihatlariga doir bir qator mas'uliyat-majburiyatlarini belgilaydi. Soliq menejmenti jarayonida ularga to'liq amal qilish soliq munosabatlari boshqaruvi samarali bo'lishini ta'minlaydi va uning muvaffaqiyatini ham belgilab beradi.

### **Mavzu bo'yicha xulosalar:**

- «Soliq menejmenti» fanining predmeti va vazifalari ko'rsatildi;
- soliq menejmenti soliq munosabatlarini amalga oshirish jarayoni bo'lib, funktsional korporativ boshqaruvning muhim ahamiyatga ega ajralmas qismi ekanligi aniqlandi;
- soliq menejmentining iqtisodiy mazmun-mohiyati va o'ziga xos jihatlari ko'rsatib berildi;
- soliq menejmenti ob'ektlari aniqlandi;
- boshqaruv tizimida soliq menejmentining roli talqin etildi.

### **Mavzuning tayanch iboralari:**

soliqlar, soliq tizimi, soliqlar va soliqqa tortish, soliqlarning ichki imkoniyatlari, metasotsial tizim, soliq menejmenti infratuzilmasi, soliq to'lovleri, soliq mexanizmi, soliq imtiyozlari, soliq stavkalari, soliq menejmenti ob'ektlari

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Soliq menejmenti fani nimalarni o'rganadi?
2. Soliq menejmenti fanining predmeti nima?
3. Soliq menejmentining mohiyati va mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali soliq menejmentini amalga oshirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
5. Soliq menejmenti fani funktsiyalarining mazmuni va mohiyati haqida nimalarni bilasiz?
6. Soliq menejmenti funktsiyalarini turkumlash va ularni turkumlab o'rganishning ahamiyati nimada deb bilasiz?
7. Soliq menejmenti tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati.
8. Soliq menejmenti tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
9. Soliq menejmentining asosi.
10. Soliq menejmentini amalga oshirishda soliq mexanizmi.
11. Soliq menejmenti fanining usullari va yondashuvlari haqida nimalarni bilasiz?
12. Soliq menejmenti fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini ko'rsatuvchi misollar keltirsangiz.
13. O'zbekistonda soliq menejmenti fanini o'rganishning dolzarbliji nimada deb o'ylaysiz?
14. Zamonaviy soliq menejmentini o'rganishning ahamiyati nimada?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1, 3, 4, 8, 13, 14, 16, 27, 28, 30, 34, 35, 41, 44, 50

## **II bob. SOLIQ MUNOSABATLARINI BOSHQARISH**

### **(rivojlanish bosqichlari va nazariyalari)**

#### **2.1. QADIMGI DUNYO VA O'RTA ASRLARDA SOLIQ MUNOSABATLARI**

Jahon amaliyotidan ma'lumki, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) o'rghanadigan ilmiy fanlar sohasi va turli darajadagi xo'jalik munosabatlarining hech biri soliq tizimidagi munosabatlar darajasidagidek ahamiyatli, ziddiyatli va ko'p funksional emasdir.

Soliqlar, dastlabki yozma manbalar paydo bo'lgan davrdan to hozirgi kunga qadar, soliq yig'uvchilar va ularni to'lashga majbur shaxslar o'rtasida keskin munozaralar sohasi bo'lib qolmoqda. Soliqlar va soliq munosabatlari paydo bo'libdiki, mazkur tizim, unda ro'y berayotgan o'zgarishlar sub'ektlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Soliq munosabatlarini har tomonlama o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish optimal soliqqa tortish tizimini tashkil etishning asosi hisoblanadi. Ularni boshqarishda soliq munosabatlarining eng ustuvor, adolatlilik tamoyiliga amal qilinishi natijasida davlat xazinasi daromadlari ko'payishi, soliq to'lovchilarni davlatga e'tirozlari kamayishiga erishilgan.

Soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Mamlakatda yig'ilgan soliqlar hisobiga davlat o'zining jamiyat oldidagi vazifalarini bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday ekan, soliqlar va soliq munosabatlarini boshqarish har qaysi davrda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan jabha sanalib kelingan.

Har qaysi davrda ham soliq munosabatlari va siyosatining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lgan. Xususan, qadimgi dunyo va o'rta asrlarda soliq munosabatlari tartibga solinmaganligi, mazkur jarayon tasodifiy xarakterga ega bo'lganligi bilan tavsiflanadi. Qsha davrlardagi soliqqa tortish tizimining quyidagi jihatlarini alohida ta'kidlash mumkin: soliqlar kuchliroq, yirik

qabilalarga to'langan, ular soliqlarni undirishda suv yo'lini to'sib qo'yish yoki boshqa zo'ravonlik vositalaridan keng foydalanishgan.

Jamiyatda ijtimoiy tuzum rivojlanishi va takomili jarayonida soliq siyosati ham o'zgargan, soliq munosabatlari zamonaviy mazmun-mohiyat kasb eta boshlagan. Dastlab, fuqarolar soliqlarni davlatni ularga ko'rsatayotgan xizmati uchun majburiy to'lov sifatida qarashgan bo'lsa, keyingi davrlarda soliqlarga jamiyat osoyishtaligi, tinchligi va undagi adolatlilik uchun to'lov sifatida qaralgan. Ma'lum bir davrlarda soliqlar ko'rlishi ehtimol bo'lgan zarar uchun sug'urta to'lovi sifatida ham talqin etilgan.

Markaziy Osiyo hududida ham turli davrlarda soliqlarning mazmun-mohiyati, uning davlat xazinasida tutgan o'rni va mamlakat rivojlanishiga ta'siri turlicha bo'lgan (1-ilova). Masalan, ulardan Amir Temur davridagi soliq siyosati birmuncha takomillashganligi bilan o'ziga xosdir.

Amir Temur va temuriylar davrida soliq boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari. Amir Temur insoniyat tarixida yirik davlat arbobi va engilmas lashkarboshi sifatida ma'lum.

Amir Temurning iqtisodiy qarashlari ham davlatning moliya-soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etganligini ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, davlatni adolatli idora etishda xazinani mablag' bilan ta'minlash yuzasidan olib borgan moliya-soliq siyosatining e'tiborga molik jihatlari uning moliya va soliq masalalari bilan jiddiy shug'ullanganligidan dalolat beruvchi qator dalillarni keltirib o'tish mumkin. Xususan, uning bu boradagi qarashlari farzandlariga vasiyat etib qoldirgan «Temur tuzuklari»da quyidagicha ifodalangan: «Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, sultanatning kuchsizlanishiga olib keladi». <sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> «Temur tuzuklari». T.: Chqlpon, 1991. 98- b.

Uning davrida mamlakat iqtisodiyotida dehqonchilik ishlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Er egalari bo'lgan dehqonlar va erga ishlov beruvchi ijara chilardan xiroj va ushr soliqlari, shuningdek, bog'dorchilik va chorvachilik ishlari bilan bog'liq bo'lgan mol sardaraxt, mol o'tloq, mol suvoq, mirobona soliqlari ham undirilgan. Er solig'ini hisoblashning o'ziga xos mexanizmi amal qilgan. Unga ko'ra, etishtirilgan hosilga va arning sifatiga qarab hosilning 1/10 dan (ushr) to 1/3 qismi miqdorida soliq olingan. Savdogarlik va hunarmandlik faoliyatiga nisbatan tamg'a yoki zakot, xorijdan keltirilgan mollarga boj joriy etilgan. Yuqoridagi soliqlardan tashqari mamlakat aholisidan ham molujihot - er solig'ining bir turi; tag'or - oziq-ovqatlarni rekviziya qilishda qo'llanadigan natura solig'i; ixrojot - saroylarga qarash uchun maxsus yig'im; boj - savdogarlardan chegarani kesib o'tishda undiriladigan boj; sarmushar - jon solig'i; xonamushar - har bir xonadondan olinadigan yig'im; qo'nalg'a - elchi, amaldorlar, choparlarga sarflanadigan xarajatlar uchun yig'im; shilon puli - noiblarni ziyofat qilish uchun yig'imi; peshkash - yuqori mansabdagi amaldorlarga sovg'a berish uchun yig'implar undirilgan.

Amir Temurning tuzuklarida soliq munosabatlarini boshqarishga oid qoidalar ham quyidagi talqinda keltirilgan: «Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va arning unum dorligiga qarab yig'sinlar. Chunonchi, doim uzluksiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug'oriladigan ekin erlarini hisobga olsinlar va unday erlardan olinadigan hosildan ikki hissasini raiyatga, bir hissasini oliv sarkorlik (saltanat xazinasi) uchun olsinlar. Lalmikor erlarni esa, jariblarga bo'lsinlar, hisobga olingan bu erlardan (soliq olishda) uchdan bir va to'rtdan bir qoidasiga amal qilsinlar»<sup>1</sup>

Amir Temurning er solig'ini lalmikor va sug'oriladigan qismlaridan alohida-alohida tartibda undirish, yangi erlarni o'zlashtirishni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlarini berish yuzasidan ishlab chiqqan qoidalarining hozirda ham e'tiborga molik jihatlari borligini ko'rsatib o'tish o'rinnlidir. Xususan, bu masalada uning tuzuklarida: «Yana amr etdimki, kimki biron

<sup>1</sup> «Temur tuzuklari». T.: Chqlpon, 1991.

sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan erni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olinmasin, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan bergenini olsinlar, uchinchi yili esa oliq-soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin»<sup>2</sup>, -deb ta'kidlagan. Natural soliqni aqcha to'lovi bilan almashtirishga ruxsat berilgan: «Agar raiyat ro'yxatga olingan erlaridan beriladigan soliqni naqd aqcha bilan to'lashga rozi bo'lsa, naqd aqcha miqdorini sarkorning hissasi hisoblangan g'allaning mazkur davridagi narxiga muvofiq belgilasinlar».<sup>3</sup> Shuningdek, Amir Temur yuritgan soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari sifatida, zabit etilgan o'lkalarga nisbatan alohida soliq siyosati strategiyasi va taktikasi quyidagicha belgilangan: «Agar erlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda (xirojni) tuzukka muvofiq yig'sinlar».<sup>4</sup>

Amir Temur farmoyishiga binoan soliq munosabatlari rahm-shavqatga asoslangan bo'lishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan: «Amr qildimki, hosil pishib etilmasdan burun raiyatdan molu jihot olinmasin. Hosil etilgach, hosilni uch bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'lovchi yubormasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u erga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda oliq-soliq oluvchini yuborishga majbur bo'lsalar, ular soliqlarni buyrug' berish va yaxshi so'z bilan olsinlar, kaltak, arqon ishlatish, ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib, zanjir bilan kishanlamasinlar. Yana buyurdimki, xirojni raiyatdan kaltaklash va savalash yo'li bilan emas, balki ogohlantirish, qo'rqtish va tushuntirish yo'li bilan undirsinlar. Qaysi hokim hukmining ta'siri cho'p va kaltaklash ta'siridan kamroq bo'lsa, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdur».<sup>5</sup>

Amir Temur davlatniadolatli idora etishda soliq siyosatining o'rni beqiyos ekanligini yaxshi tushunar edi. Uning davrigacha soliq yig'uvchilarining maoshlari soliq to'lovchilar hisobiga qoplanilgan bo'lib, ular o'z shaxsiy

---

<sup>2</sup> Yana o'sha manbadan,

<sup>3</sup> Yana o'sha manbadan.,

<sup>4</sup> Yana o'sha manbadan,

<sup>5</sup> Yana o'sha manbadan,

manfaatlaridan kelib chiqib, qonunda ko'zda tutilmagan soliqlarni undirishga ham harakat qilishganligi bois, Amir Temur tomonidan soliq undiruvchilar fuqaroning ustiga yuk bo'lmasligi uchun ularga maosh tayinlaganligi bunga misoldir.

Amir Temurning o'zbek davlatchiligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan boshqaruv, xususan, soliqqa tortish tizimi adolatga asoslanganligini ta'kidlash o'rinnlidir. Uning mukammal jamiyat qurish g'oyasining asosini mamlakatda hisob-kitob ishlarini to'g'ri va aniq yuritish tashkil etgan. Ilk marta xazina daromadlari soliqli va soliqsiz tushumlarga ajratilgan. Xazina xarajatlari tarkibining o'zgarish an'analari tahlil etilgan. Masalan, xarajatlar tarkibida obodonchilik, ijtimoiy-madaniy (fan, madaniyat, ijtimoiy ta'minot) ishlariga sarf etilayotgan aqchalar ortib borayotganligi kuzatilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davrida bir qadar tartibli soliq tizimi amal qilgan.

XVII asr oxirlariga kelib soliqlar ko'pgina davlatlar byudjetining asosiy daromad manbaiga aylanishi soliqlar va soliq munosabatlarini atroflicha o'rganish zarurligini taqozo etdi. Aynan, shu davrdan boshlab, iqtisodchilarning soliqlarga ishlab chiqarish rivojlanishining muhim unsuri va mamlakat iqtisodiy salohiyatini o'stirish omili sifatida qarashlari yuzaga kelgan.

## **2.2. SOLIQQA TORTISHNING KLASSIK NAZARIYALARI**

### **(A.SMIT, D.RIKARDO, VA BOSHQALAR)**

XVII asr oxirida soliq nazariyasi hamda soliqqa tortish muammolari faol o'rganila boshlandi. Soliqqa tortish nazariyäsining asoschisi, buyuk iqtisodchi olim Adam Smit hisoblanadi<sup>1</sup>. U soliqqa tortish borasidagi qarashlarini o'zining «Millatlar boyligi ...» asarida ko'rsatib bergan.<sup>1</sup> A.Smit tomonidan ishlab chiqilgan soliq nazariyasi asosini soliqqa tortishning to'rt, ya'ni: adolatlilik, qulaylik, tenglik va arzonlik tamoyillari tashkil etadi. Olimning fikriga ko'ra, yuqorida qayd etilgan tamoyillar asosida tashkil etilgan soliq tizimi eng maqbul hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, A.Smit va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortishning klassik nazariyasi o'z davridagi soliq amaliyotidan yuz yillab ilgarilab ketgan bo'lib, ularni hozirgi kunda ham o'rganish o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

---

<sup>1</sup> Smit Adam (1723-1790 yy), shotland iqtisodchisi, 1776 yilda “Millatlar boyligi” asarini yaratgan. // Slovar sovremennoy ekonomicheskoy teorii Makmillana. – M: INFRA – M, 1997, ss. 457-458.

## **2.3 J.KEYNS, M.FRIDMAN, A.LAFFER NAZARIYALARIDA SOLIQ MUNOSABATLARI**

XX asrda J.Keyns, M.Fridman, M.Borns, G.Stayn, A.Laffer va boshqa iqtisodchilar tomonidan qator o'ziga xos soliq nazariyaları yaratıldı.

Masalan, amerikalik iqtisodchi J.Keyns o'zining nazariyasida soliqlar iqtisodiyotni boshqarish va uni rivojlantirishning asosiy omili sifatida talqin etgan. Uning tomonidan bo'sh turgan mablag'lar(omonatlar) iqtisodiyotni o'sishiga to'siq bo'lishi, ularni soliqlar yordamida undirish lozimligi ta'kidlangan.

Taniqli ingliz iqtisodchisi va davlat arbobi, Keyns ta'limotining asoschisi Jon Meynard Keyns (1883-1946) Kembridjda tavallud topgan. Maktabdan so'ng Jon Iton nomidagi xususiy kollejga o'qishga kirgan; o'sha vaqtning o'zida uning iste'dodi namoyon bo'la boshlagan. Keyns klassik adabiyot, matematika va tarix bo'yicha mukofotlar sovrindori bo'lган, ilmiy maqolalar yozgan, turli xil bahslarda faol ishtirok etgan, sport bilan muntazam shug'ullangan. Keyinchalik ta'limni Kembridj universitetining Qirollik kollejida davom ettirdi va ushbu o'quv maskanida uning asosiy fani iqtisodiyot bo'ldi. U A.Marshall ma'ruzalarini tinglar, A.Pigu seminarlariga qatnashar, imkon qadar barcha iqtisodiy adabiyotlarni o'rganar edi. Universitetni tamomlagandan so'ng Davlat xizmatining Hindiston ishlari bo'yicha Boshqarmasiga ishga kirgan, lekin u erdag'i ishni zerikarli topib, ikki yildan so'ng Bombeyga ketadi.

1909 yilda ustoz A.Marshall taklifiga ko'ra Kembridj universitetiga ishga keladi va u erda 1915 yilgacha ma'ruzalar o'qiydi. Ushbu davr mobaynida u «Etimollar to'g'risida traktat», «Hindiston valyutasi va moliyasi» kabi ilmiy asarlarini yozdi. Mazkur ishlari hukumat tomonidan a'lo darajada baholanib, u qirollik komissiyasi a'zoligiga tayinlanadi. II Jahon urushidan so'ng Jon o'zining «Versal kelishuvining iqtisodiy oqibatlari», «Pul islohotlari to'g'risida traktat» kabi asarlarini yozdi.

1936 yilda Keynsning asosiy ishi «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» nomli asari nashr etilishi bilan iqtisodiy ta’limotlar rivojlanishida tub burilish yasaldi. Muallif ushbu ilmiy asarida A.Smit va D.Rikardolarning klassik ta’limotiga qarshi o’z ta’limotini ilgari suradi. U iqtisodiy jarayonlarni mikro va makro darajaga ajratib o’rganish zarurligini ta’kidlaydi. Keyns iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish tizimi asoschisi hisoblanadi. Uning talab va taklif, bandlik, inflyatsiya va boshqa bozor vositalari hamda ularning o’zaro bog’liqligi borasida bildirgan fikrlari jahon iqtisodchilari tomonidan tan olingan. Makroqtisodiy muvofiqlashtirishning Keynscha modeli AQSH va Buyuk Britaniyada 30-yillardagi «turg’unlik davri» hamda ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda inqirozdan chiqishda asosiy rol o’ynagan. Uning ta’limoti XX asrning 70-yillarigacha eng mukammal hisoblangan.<sup>1</sup>

Keynscha ta’limot asosida davlatning faol fiskal siyosati yotadi, bunda, soliq betarafligining neoklassik ta’limotiga ko’ra, iqtisodiyotga davlatning to’g’ridan-to’g’ri emas, balki bevosita ta’siri yotadi «Laisser faire passez» klassik tamoyili taklif iqtisodiyoti tarafdorlari tomonidan “Trop dimpot tuell impot” (katta soliqlar soliqlarni o’ldiradi) sifatida qayd etilgan.


Ushbu nuqtai-nazarda soliqlar ularni to’lovchilar uchun yuk bo’lmasligi, balki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini rag’batlantiruvchi omillardan biri bo’lishi lozimligi ta’kidlangan(8-chizma). Hukumatning soliq siyosati mamlakatda soliq soliq undirishning ma’qul mexanizmini yaratishga yo’naltirilgan bo’lishi, u jamg’armalar va investitsiyalarni rag’batlantirish omili bo’lishi muhimdir.

---

<sup>1</sup> Qarang: Bunkina M.K., V.A.Semyonova. Makroekonomika: Uchebnik. -M.:Delo i Servis, 2000. -512 s.

## Soliq stavkalarini pasaytirishning iqtisodiy mohiyati

Narxlar darajasi



Haqiqatdagi milliy ishlab chiqarish qiymati

Eng yuqori soliq stavkalari pasaytirilganda mehnat taklifi hamda tadbirkorlikka rag'batlar oshadi, jamg'armalar va investitsiyalar ko'payadi. Bu esa, AS egrisidan  $AS^1$  egrisiga o'tish imkonini beradi (taklifdagi nisbatan yuksak egri chiziq) natijada narxlar darajasi pasayib, ishlab chiqarish hajmi o'sadi.

XX asrning 50-yillarida M.Fridman tomonidan ilgari surilgan monetar nazariyada soliqlar pul muomalasini baholash asosida o'rganilgan. Iqtisodchining qarashlariga ko'ra, soliqlar muomaladagi ortiqcha pul miqdorini kamaytirishi orqali pul muomalasiga ta'sir ko'rsatadi va shu orqali iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi salbiy omillarni kamaytiradi.

Amerikalik iqtisodchi, monetarizm matabining asoschisi, Nobel mukofoti sohibi Fridman Milton – 1912 yilda Nyu-York shahrida, Sharqiy Evropadan kelgan kambag'al immigrantlar oilasida dunyoga keldi.

1928-1932 yillarda Fridman Rutgerts universitetini tamomlagach, unga ikki yo'nalish: matematika va iqtisodiyot bo'yicha bakalavr darajasi berildi. Undan keyin, u Chikago universitetining magistr darajasini oldi (1933). Oz fursat Kolumbiya universiteti bilan hamkorlik qilib, keyinchalik Chikagoga qaytadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida AQSH kazinochiligidagi soliqlar, shuningdek, harbiy-iqtisodiy tadqiqotlar bilan shug'ullangan. Urushdan keyingi davrda Marshal rejasini amalga oshirishda yordamchi bo'lib faoliyat ko'rsatgan. 1948 yili Fridman yana Chikago universitetiga qaytadi va sermahsul ilmiy faoliyatini boshlaydi. M.Fridman pul muomalasi, narx, iste'mol nazariyalari va metodologiyasi muammolari bilan shug'ullanib, unga mashhurlikni keltirgan qator monografik tadqiqotlarni tayyorladi: «Monetar barqarorlik dasturi» (1959), «Pul nazariyasini va siyosatida urushdan keyingi an'analar» (1963), «Pul va fiskal siyosat» (1969), «Pul nazariyasida kontrrevolyutsiya» (1970), «Pul va iqtisodiy rivojlanish» (1973), «Ishsizlik va inflyatsiya?» (1975), «Kapitalizm kelajagi» (1977), «Iqtisodiyot va siyosatda ko'rinnmas qo'l» (1981) va boshqalar. 1967 yili Milton AQSH iqtisodiy assotsiatsiyasi prezidenti etib tayinlandi<sup>1</sup>.

Fridman o'z davrining etuk iqtisodchilari S.Kuznets, G.Saymon (Nobel mukofoti sohibi, 1971), F.Nayt, J.Viner bilan hamkorlikda ishlagan bo'lib, o'ziga xos neoklassik maktabning asoschisi va etuk namoyondasi hisoblanadi.

XX asr 80-yillarida M.Borns, G.Stayn va A.Lafferlar tomonidan taklif iqtisodiyoti nazariyasiga asos solindi. Ushbu nazariyada ham soliqlar iqtisodiyot o'sishi va rivojlanishining muhim omili sifatida e'tirof etilgan. Mazkur nazariyaga ko'ra, soliq og'irligi kamaytirilishi mamlakatda tadbirkorlik va investitsion faollikning keskin rivojlanishiga olib keladi.

Taklif iqtisodiyotining asosiy nazariy postulati A.Lafferning mashhur soliq egrisida o'z aksini topgan. Unda davlat byudjeti soliq tushumlari, soliq stavkalari va milliy ishlab chiqarish darajalari o'rtasidagi o'zaro aloqa aks ettirilgan. Unga ko'ra, soliq stavkalari yuqori darajada amalga oshirilishi, soliq to'lovchilarining soliqqa tortish bazasi buzilishi hisobiga byudjetga soliq tushumlarining qisqarishiga, oxir oqibatda, sub'ektlarning ishlab chiqarish faoliyati rag'batlardan mahrum etilishiga olib keladi.

Taklif iqtisodiyoti tarafdarlari, statistik ma'lumotlar asosida, soliqqa tortishning eng ma'qbul stavkalarini aniqlashgan. Ushbu maktabning mashhur

<sup>1</sup> Qarang: Bunkina M.K., V.A.Semyonov. Makroekonomika: Uchebnik. -M.: Delo i Servis, 2000. -512 s.

vakili M.Feldsteyn daromad solig'i stavkasi 42 foiz bo'lishi kerakligini asoslaydi, amerika soliq islohotlari loyihasi mualliflari senatorlar Bredli va Gefard uning 30-35 foizlik darajasini taklif etishdi, M.Fridman esa, chegarani 25 foiz darajasida belgilash lozimligini qayd etgan. Mazkur nuqtai-nazarlarning eng so'nggisi, ya'ni 25 foizlik darajasi A.Laffer nazariy modeliga bir muncha mosdir. Shundan ko'rinish turibdiki, soliqqa tortishning eng ma'qul stavkasi 15-25 foizlar o'rtasidadir (aslida Lafferning nuqtai-nazariga ko'ra, foydaga eng ma'qul soliq stavkasi 20-25 foizdan oshmasligi lozim).

Taklif iqtisodiyotining yana bir maqsadi turli sub'ektlar va iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga soliq imtiyozlarini bekor qilishga qaratilganligidir. Bu borada, taklif iqtisodiyotining bosh tamoyili quyidagicha ifodalanadi: yuqori soliqlar – katta soliq imtiyozlari berilishini va aksincha, quyi darajadagi soliqlar – soliq imtiyozlarini bekor qilishni nazarda tutadi. Adolat nuqtai-nazaridan ta'kidlash joizki, A.Laffer g'oyasi qator iqtisodchilar tomonidan tanqid qilingan. Tanqid mohiyati shundan iborat ediki, soliq stavkalarini pasaytirish byudjet daromadlari kamayishining oldini olish, ishlab chiqarish hamda daromadlar o'sishi tufayli soliq bazasining unga mos holda kengayishi to'g'risidagi Laffer taklifi o'ta soddalashtirilgan. Uni qisqa muddatli, ya'ni taktik maqsad yo'lida amalga oshirish shubhali topilib, Laffer tavsiyalariga mos holda qabul qilingan chora-tadbirlarning amaliy natijasi davlat byudjeti taqchilligi bo'ladi, degan xulosaga kelingan edi.

## **2.4. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA SOLIQ TIZIMINI RIVOJLANTIRISH AN'ANASI**

Soliq tizimining tarkibi va turlari bo'yicha rivojlangan mamlakatlarni ikki guruhga: asosiy ulushi to'g'ri soliqlarga to'g'ri keladigan (AQSH va boshq.) va asosiy salmoqni egri soliqlar tashkil etadigan davlatlar (EI mamlakatlari va boshq.)ga ajratish mumkin.

AQSH soliq tizimi federal hukumat hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan asosiy soliq turlarining parallel ravishda foydalaniishi bilan tavsiflanadi. Bunday soliqlar tarkibiga daromad solig'i, aniq tovarlar uchun aktsizlar, ijtimoiy sug'urta, ta'minot jamg'armalariga badallar, meros va sovg'alarga solinadigan soliqlarni kiritish mumkin. AQSH federal hukumat soliq tizimida daromad solig'i, shtatlarning soliq tizimida universal va maxsus aktsizlar asosiy hisoblansa, mahalliy soliq tizimida mol-mulk solig'i muhim o'rinni egallaydi. Bugungi kunda to'g'ri soliqlarning 40 foizi, eng yirik fiskal yig'im hisoblanadigan, federal daromad solig'i hissasiga to'g'ri keladi.

AQSHda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish ob'ekti «ish yuritish»ga (tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, transport, maxsus kiyimlar va boshq.) sarflangan xarajatlar chegirilgan holdagi korporativ biznesdan olingan shaxsiy daromad hisoblanadi. Bunda transfer to'lovleri, uzoq muddatli kapital aktivlarni sotishdan olingan daromadning yarmi, obligatsiyalar bo'yicha foizlar va boshqa shu kabi ishlab chiqarishga taalluqli bo'limgan daromadlar soliqqa tortiladigan bazadan qisman yoki to'liq chegiriladi. Soliqqa tortiladigan daromadga jismoniy shaxslarning barcha daromadlari, xususan, yollanma ishchilar ish haqi, erkin kasb egalarining daromadi, qalam haqlari, yakka tartibdagi mehnatdan olingan tushumlar va boshqalar kiritiladi. Mazkur soliqni hisoblashda soliq to'lovchining farzandlari yoki qaramog'idagilar soni, shaxsiy yoki ijaraga olingan uyda yashashi, salomatligi va shu kabi omillar ham hisobga olinadi.

Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar soliq tizimi AQSH soliq tizimiga muqobil hisoblanadi. 1998 yilda Evropa Ittifoqi mamlakatlarida daromad solig'i 24 foizni tashkil etgan bo'lib, bu iste'mol soliqlarining (1/3 atrofida) ulushidan kamdir (1-jadval). Ko'pgina soliqlardan (50 turi atrofida) tashkil topgan va federativ tuzilishga ega Germaniya soliqqa tortish tizimi ham o'ziga xosdir. Ushbu mamlakatda har bir soliq turi bo'yicha maxsus qonunlar amal qilib kelgan.

### **1-jadval**

#### **Rivojlangan mamlakatlardagi soliqlar tarkibi(2001)**

(jami soliqlardagi ulushi %)

	<b>AQSH</b>	<b>EI</b>	<b>Yaponiya</b>
Daromad solig'i	41	24	19
Korporativ soliq	9	6	13
Mol-mulk solig'i va boshqa to'g'ri soliqlar	11	8	11
Sug'urta jamg'armalariga badallar	23	32	38
Iste'mol soliqlari	16	30	19

Manba: «OECD Economic Outlook», № 69, 2002.

Germaniyada soliq to'lovchilar uchinchi shaxs (soliq maslahatchilari, soliqlar bo'yicha mas'ullar, advokatlar, auditorlar) yordamidan foydalanishi mumkin. Ushbu xizmat «Soliq maslahatchilari» to'g'risidagi maxsus qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu xizmatni ko'rsatish bo'yicha sertifikatga ega bo'limganlar tomonidan ko'rsatilgan xizmat uchun 500 euro miqdorida jarima solinadi.

Boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagi kabi Germaniyada ham byudjet daromadlarida asosiy salmoqni iste'mol soliqlari tashkil etadi. Masalan, QQS tovar va xizmatlar iste'molchiga etib borishining barcha bosqichlaridan undiriladi. Soliqqa tortish ob'ekti bo'lib ishlab chiqarish va sotish jarayonining har bir bosqichida qo'shilgan qiymat hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, oziq-ovqatlar, tibbiy va bosmaxona xizmatlari, transport va boshqa ijtimoiy maqsaddagi xizmatlar 7 foizlik stavkada soliqqa tortiladi. Eksport, dengiz floti va fuqaro aviatsiyasi uchun ishlab chiqarilgan tovarlar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar muomalasi bilan bog'liq kredit operatsiyalari soliqqa tortilmaydi. Soliqqa tortishdan pochta, banklar, sug'urta kompaniyalari, ayrim ijtimoiy-madaniy muassasalar xizmatlari, shuningdek, kichik, qishloq va o'rmon xo'jaligi korxonalari ozod etilgan.

90-yillarda Evropa Ittifoqida amalda bo'lgan soliq turlari va soliq stavkalarini tartibga solish borasida qator islohotlar amalga oshirildi. O'sha davrlarda Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar soliq tizimlarining turlicha bo'lganligi soliq qonunchiligining moslashuvchanligiga ma'lum darajada to'sqinlik qilganligini ko'rsatib o'tish lozim.

Yuqorida qayd etilgan soliq tizimining muqobil guruhlariga Yaponiya kirmaydi. Chunki, uning byudjet daromadlarida daromad va iste'mol soliqlarining ulushi bir xil (o'rtacha 20 foiz atrofida). Yaponiya hukumati o'z mablag'larini (30 foiz atrofida) nobyudjet fondlarga ajratmalar hisobidan shakllantiradi. Ushbu ajratmalarga ijtimoiy sug'urta va yollanma mehnat bilan shug'ullanadigan shaxslarni ijtimoiy ta'minlash uchun to'lanadigan ajratmalar kiritilgan bo'lib, ular to'g'ri soliqlar hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minotni moliyalashtirish manbai bo'lib, davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, davlat va mahalliy byudjet mablag'lari, pensiya fondlari hisoblanadi. Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi ishchilar, tadbirkorlardan undiriladigan badallar va davlat byudjeti dotatsiyalari hisobiga tashkil etiladi. Ushbu fond resurslari investitsion faoliyatdan olingan daromadlar bilan to'ldirilib boriladi. Ijtimoiy sug'urta badallari majburiy bo'lib, ular soliq to'lovlar sifatida talqin etiladi.

So'nggi yillarda, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda o'z milliy soliq tizimlari isloh etilmoqda. Masalan, AQSHda 2007 yilgacha iste'mol solig'ini 60 mlrd. AQSH dollarga qisqartirish ko'zda tutilmoqda. AQSH hukumatining

ta'kidlashicha, soliq stavkalarining pasaytirilishi mamlakat iqtisodiy holatining yaxshilanishiga omil bo'ladi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ham soliq yukining pasaytirilishi nazarda tutilgan.

Xususan, 1998 yilda Germaniya hukumati soliq stavkalarini pasaytirish yuzasidan islohotlarni amalga oshirishini e'lon qildi. Unga ko'ra, 2001-2005 yillarda jismoniy va yuridik shaxslar soliqlarini 56 mlrd. nemis markasi(27 mlrd. AQSH dollar)ga kamaytirilishi ta'kidlanganligi, isloh qilish asosan ish xaqidan olinadigan daromad va kapitaldan olinadigan daromaddan undiriladigan soliqlarga daxldor bo'lishi hamda ular 3 bosqichda amalga oshirilishi ta'kidlandi. Masalan, mamlakatda korporativ soliq yuki pasayganligi (2000 yilda 51,6 dan 2001 yilda 39,4 foizgacha tushirilishi) islohot samarasidir.

Turli mamlakatlarda undiriladigan soliqlar tarkibi va stavkalari ham takomillashib bormoqda (2-ilova). Xususan, Frantsiya hukumati 2001-2003 yillar mobaynida 120 mlrd. frank(86 mlrd. AQSH dollar)gacha, Italiyada esa, 20 trln. lira (9 mlrd. AQSH dollar) atrofida soliq yuki kamaytirilishi ta'minlandi. Irlandiyada korporativ soliq stavkasi 20 foiz (EI mamlakatlarda eng kichik) darajada belgilandi.

1996-2001 yillar mobaynida rivojlangan mamlakatlarda korporativ soliq stavkasi o'rtacha 37,5 dan 33 foizgacha pasaytirildi. Lekin korporativ soliqlarni pasaytirish iste'mol soliqlarining ortishi hisobiga amalga oshirildi va byudjetni to'ldirishda ular samarali manba bo'lib qoldi.

## **2.5. DAROMAD(FOYDA)NI SOLIQQA TORTISHDA SOLIQ TAMOYILLARINI OPTIMALLASHTIRISH**

Erkin kontseptsiyaga muvofiq foydani soliqqa tortish bo'yicha imtiyozning kamaytirilishi soliqlar yordamida iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirishda davlat ta'sirining pasayishiga olib keladi va bu holda, ustuvorlik bozor munosabatlari ta'sirida kechadi. Nazariy jihatdan bu holat ko'pincha soliqqa tortishning betaraflik tamoyilini hayotga joriy etish bilan uzviy bog'liqlikda kechadi.

Tadbirkorlik faoliyati hamda unga mos holdagi foydani soliqqa tortishda ushbu tamoyil kapitalning qo'llanilish sohalari va iqtisodiy faoliyat turlaridan qat'iy nazar soliq undirishningadolatlilikka asoslanganligi bilan ifodalanadi. Biroq, qator mamlakatlar uchun foydani soliqqa tortishda imtiyozlarning ahamiyati salmoqli hisoblanadi. Bu to'g'risida, xususan, XX - asrning 90-yillarida qator etakchi mamlakatlar bo'yicha yapon ekspertlari bergan baho guvohlik beradi. Mazkur baholashlarga ko'ra, soliq imtiyozlari AQSH, Angliya, Germaniya, Yaponiya (20,0; 25,0; 16,0 va 4,0 foizlari mos holda) foydadan soliq tushumi kamayishiga olib keladi. Haqiqatda ham barcha mamlakatlarda, Yaponiya istisno qilinganda, foydani soliqqa tortishning pasayishi soliq imtiyozlari keng qo'llanilishi oqibatida sezilarli bo'lganligini ta'kidlash lozim. Yaponiya misolidagi alohida vaziyat esa, bu mamlakatda o'ziga xos soliq siyosatini yuritishning(foydaga yuqori soliq stavkalarining - 50 foizga yaqini - kichik hajmdagi soliq imtiyozlari bilan qo'shilishi) samarasi bo'lib, u, nisbatan fiskal mohiyat kasb etganligi bilan izohlanadi. Foydani soliqqa tortishdagi bunday yo'nalishni tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'siri, o'z navbatida, faol sanoat siyosatini yuritish bilan bartaraf etiladi.

Umuman olganda, foydani soliqqa tortishda fiskal va rag'batlantiruvchi funktsiyalarning o'zaro optimal holda qo'llanilishi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda yalpi soliq daromadlarida, ayniqsa, yakka tartibda undiriladigan

daromad soliqlari va asosiy egri soliqlarni undirish jarayonida ularning ta'sirini mo'tadillashtirishda sezilarli ahamiyatga ega bo'ladi.

Hozirgi kunga qadar, xalqaro soliq amaliyotida mukammal soliq tizimi mavjud emas. Shu bois, barcha mamlakatlardagi soliq siyosatining ilmiy-amaliy asoslarini o'rganish, samarali va adolatli soliqqa tortish uslubiyatini ishlab chiqish yuzasidan izlanishlar amalga oshirilmoqda.

### **Mavzu bo'yicha xulosalar:**

- soliq munosabatlarini boshqarishni tashkil etish jamiyat rivojlanishining muhim omili ekanligi ta'kidlandi;
- soliq tizimi tarixiy transformatsiyasining natijasi sifatida o'rganib chiqildi. Xususan, Amir Temur soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berildi;
- soliq menejmenti nazariyalarining umumiy va farqli jihatlari bayon etildi.

### **Mavzuning tayanch iboralari:**

soliq siyosati, soliq munosabatlari, soliqqa tortish nazariyasi, soliq tamoyillari, soliq iqlimi, fiskal soliq siyosati, soliq kontseptsiyasi, A.Laffer soliq egri chizig'i.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Soliq munosabatlari va ularni boshqarishning ahamiyati.
2. Qadimgi va o'rta asrlarda soliq munosabatlari.
3. A.Temur davrida soliq munosabatlari va ularni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Soliq menejmenti nazariyalari (A.Smit, J.Keyns, M.Fridman va boshqalar).
5. A.Lafferning soliq egri chizig'i.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1, 3, 5, 7, 8, 20, 21, 30, 31, 40, 41, 42, 44, 47, 51, 52

### **III bob. ZAMONAVIY SOLIQ TIZIMI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

#### **3.1. SOLIQ TIZIMI VA UNING MAZMUN-MOHIYATI**

Jamiyatning rivojlanish tarixida soliqlar to'g'risida xilma-xil fikr-mulohaza va nazariyalarning o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, ularni tahlil qilish orqali samarali soliq tizimi modelini yanada takomillashtirib borish imkoniyati yuzaga keladi.

Xo'jalik yuritish xalqaro amaliyotining eng murakkab va qaramaqarshiliklarni o'zida aks ettiruvchi muammolaridan biri - soliqlar muammosidir. Soliqlar ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun davlat tomonidan qonuniylik zamirida joriy etilgan qoidalar asosida undirib olinadigan majburiy to'lovlar bo'lib, davlat byudjeti daromadlari asosan ulardan (o'rtacha 50-95%) hosil bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti daromadlarining ham asosiy qismi soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Soliqlar - majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan soliq tizimi - soliq turlarining yig'indisi bo'lib, davlat byudjeti tizimining tarkibiy qismi hamdir. Soliqlar va yig'implarni joriy etish hamda ularni undirish shakl va usullarini qo'llash, ya'ni soliq tizimi orqali davlat xarajatlarining asosiy qismi moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida:

- umum davlat soliqlari;
- mahalliy soliqlar va yig'implar amal qiladi.

Soliqlar va yig'implar bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yoki u vakolat bergen davlat organi tomonidan belgilanadi<sup>2</sup>.

Soliq solish - yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar,

<sup>1</sup> Qarang: Q.Yahyoev. Soliqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik (qayta ishlangan). -T., 2003. 9 - bet.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Me'yoriy hujjatlar to'plami - T.:Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2003. 2-bob, 5-modda, 5-6 betlar.

qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi. Olingen manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi shart<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi soliq tizimining huquqiy asoslarini, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlarini belgilaydi, soliq ishlarini yuritish tartibotini va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni tartibga solib turadi<sup>2</sup>.

Milliy daromadni qayta taqsimlash mexanizmlaridan biri bo'lgan soliqlar orqali davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda ulardan samarali foydalanish, ayniqsa, soliq to'lovlarining amalga oshirilishida tomonlar manfaatlarini muvofiqlashtirish nazarda tutiladi. Soliq mexanizmi - soliq ishini tashkil qilishning elementlari, tamoyillari va uslublari majmuasidir. Uni takomillashtirishda, aynan, o'zaro bog'liq bo'lgan mazkur majmuani takomillashtirish tushuniladi.

Shu o'rinda, ta'kidlash lozimki, soliq mexanizmi mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslarning iqtisodiy faolligiga ta'sir etuvchi omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, soliq tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqliqdir.


Yuridik va jismoniy shaxslar amaldagi soliq qonunchiligidagi ko'ra, belgilangan tartibda soliq to'lovchilar hisoblanadi. Ular tomonidan to'lanadigan soliqlar xilma-xildir (9-chizma).

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Me'yoriy hujjatlar to'plami - T.:Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2003. 2-bob, 4-modda, 5 bet.

<sup>2</sup> O'sha manbadan, 1-bob, 1-modda, 4 bet.

**Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar<sup>1</sup>**



<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari tomonidan to'lanadigan soliqlar tizimi amaldagi soliq qonunchiligidagi muvofiq ishlab chiqildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq barcha yuridik shaxslar belgilangan tartibda umum davlat va mahalliy soliqlarning to'lovchilari hisoblanadi.

Soliqlarni undirib olishda, ilmiy-amaliy jihatdan ularning asoslangan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq mexanizmining ta'sirchanligi mamlakat rivoji yo'lidagi ko'p qirrali turkum vazifalarni bajarish jarayonida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda islohotlarni yanada chiqurlashtirish davrida soliqlar roli ortib, ular eng muhim iqtisodiy mexanizmga aylanib qoldi.

Soliq tizimi va uning amal qilish mexanizmi - bozor munosabatlari sharoitida aynan mamlakatdagi tadbirkorlik faolligi va iqtisodiy o'zgarishlar muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Mamlakatimizda amaliyotga joriy etilgan soliq Kodeksining ahamiyatli jihat shundaki, bir tomondan, u soliq munosabatlarini majmualilik, tizimlilik va izchillik negizida bosqichma-bosqich takomillashtira borish orqali soliqqa tortishning:

- tamoyillari;
- tizimi;
- turlari;
- hisob-kitoblari;

- huquqiy asoslari kabi jihatlarini o'zida mujassam etgan, ikkinchi tomondan, soliq qonunchiligiga oid me'yoriy hujjatlarni tartibga solib, u soliq tizimining yaxlit-barqaror huquqiy asosi bo'lib qolmoqda.

Bu boradagi muammolar ilmiy-nazariy bahs, fikr almashuvlarning ob'ekti sifatida, moliya munosabatlarini takomillashtirish, iqtisodiy rivojlanish jarayonida byudjet siyosati ham, soliq siyosati ham moliya siyosati doirasida davlatning iqtisodiyotga ta'sirini o'zida aks ettiruvchi soliqlarning:

- «manba yaratuvchi»;

---

<sup>2</sup> Yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining 2004 yilgi davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 567- sonli qarori. 2003 yil, 25 dekabr// «Soliqlar va bojxona xabarlari» gazetasи, 2004 yil, 23 yanvar.

- «tashviq qiluvchi-yo'naltiruvchi»;
- «majburlovchi»;
- «ruhiy ta'sir etuvchi» va shu kabi funktsiyalarida namoyon bo'lishi, ularning - dastaklar sifatida kengroq tadqiq etilishini yo'lga qo'yish zaruratin keltirib chiqardi.

Shu o'rinda, soliqqa tortishni qiyosiy tahlil etish ham foydali bo'lib, bunda xalqaro soliq tajribasini, asosan rivojlangan mamlakatlar misolida, xususan, AQSH, Angliya, Frantsiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya va boshqa qator davlatlarning turlicha dastaklar yordamida, milliy iqtisod rivoji uchun shart-sharoitlar yaratib bergen «muhofazakor» siyosatini misol qilib keltirish mumkin.

Xalqaro soliq munosabatlarini o'rganishning yana bir o'ziga xos jihat shundaki, mazkur mamlakatlar «aralash iqtisodiyot» orqali erkin tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishgan. Tadbirkorlik faoliyati esa, asosan soliq siyosati ta'sirida davlat tomonidan tartibga solib turiladi.

«O'zbek modeli»<sup>1</sup> rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy tamoyillarini inobatga olgan holda rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi boy nazariy - amaliy tajribasini qiyosiy tahlil asosida o'rganish orqali ularning soliq tizimlari afzalliklaridan samarali foydalangan holda, davlatimizning ham milliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi moliya va pul siyosatini ayniqsa, soliqlar borasidagi tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirishning mavjud imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish mumkin bo'ladi. Bu o'z navbatida, mamlakat iqtisodiy yuksalishi uchun mustahkam tayanch rolini o'ynaydi hamda soliq strategiyasining ustuvor yo'nalishlari majmuasini mukammal ishlab chiqish imkonini yaratib, soliq mexanizmini yanada takomillashtirish uchun asos bo'ladi.

Soliq tizimining samarali bo'lishi uning tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga ta'sirini ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Aynan, shunday sa'yi-harakat negizida mamlakat soliq munosabatlari sifat jihatidan yangi rivojlanish darajasiga ko'tariladi.

---

<sup>1</sup> Hozirda bu termin keng qo'llanilmoqda (mualliflar).

Bu tizim o'zida:

- qonunchilik, adolatlilik tamoyillariga asoslangan soliq mexanizmini yanada takomillashtirish;
- zamonaviy soliq xizmati idoralari faoliyatini izchillik bilan olib borish;
- soliqlar va soliqqa tortish sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashning samarali mexanizmini yaratish;
- mamlakatda soliq nazariyasi asoslarini ishlab chiqish va muvaffaqiyat bilan amaliyotga joriy etish;
- soliq to'lovchilarda yuqori soliq madaniyatini qaror toptirish;
- milliy iqtisodiyot rivojida samarali ta'sirga ega bo'lgan soliq imtiyozlarini qo'llash kabi qator, tub sifat o'zgarishlarini mujassam etganligi bilan izohlanadi.

Soliqlar, ularning oldiga qo'yilgan ko'p qirrali vazifalarni bajarib, mamlakat iqtisodiy rivojiga etakchi ta'sir o'tkazuvchi unsurlardan biriga aylanadi. Ular ta'sirida soliq munosabatlari tartibga solinib, soliq qonunchiligi mustahkamlanadi, shuningdek, soliqqa tortishning eng maqbul stavkalari darajalari aniqlanib, soliqqa tortish bazasi yanada kengayadi va soliq sub'ektlari soni ortadi.

Soliq menejmentiga ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitni shakllantirish uning maqsadli tizim ekanligini ko'rsatadi. Bu jarayonda, iqtisodiyotning sifat va son ko'rsatkichi, ma'lum davr oralig'ida soliq tizimi ta'sirida bo'ladi. Soliq menejmentining uslubiy-amaliy jihatdan murakkabligi, soliqlarning bir vaqtning o'zida iqtisodiy - moliyaviy, siyosiy-huquqiy va ijtimoiy hodisa ekanligidan, shuningdek, mazkur boshqaruvning ko'p qirrali va tarkiban ko'p bo'linmaliligi oqibatidandir. Soliq menejmentining bu sifati, ob'ektiv ravishda, unga ko'p maqsadlilik xosligini ko'rsatadi.

Ammo, davlatning soliq tizimini shakllantirish va uni rivojlantirishning bosh omillariga asoslanib ta'kidlash mumkinki, soliq menejmentining maqsadi davlatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosiy manfaatlariga ko'ra aniqlanadi. Aynan, shu mezonlarga binoan, soliq tizimining samaradorligi, uning funktsionalligida maqsadlarga erishganlik ko'rsatkichlari baholanadi.

### **3.2. BOSHQARUV TIZIMI SIFATIDA**

Tizim sifatida soliq menejmenti soliq to'lovchi su'bektlardan turli byudjetlarga majburiy va qaytimsiz to'lovlar ko'rinishidagi pul oqimini rejalashtiradi, muvofiqlashtiradi va uning nazoratini uyushtiradi.

Ta'kidlash lozimki, bu ta'rif soliq menejmentining mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Masalan, bu jarayonning maqsadga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, qayd etish kerakki, soliqlar, bir tomondan, davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbasi sanalsa, boshqa tomondan, ularning muvofiqlashtiruvli ta'sirga ega ekanligi (soliq jarimalari, chegirmalari, imtiyozlari va shu kabilar orqali) davlatning iqtisodiy holatini sifat va son jihatdan boshqarish orqali tadbirkorlik sub'ektlariga, alohida soha(tarmoq)larga, aholining hayot darajasiga, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ta'sir ko'rsatishning muhim vositasi hisoblanadi.

Coliqlarning yuqorida bayon etilgan o'ziga xosligiga asoslangan uslubiylik va vorisiylikka ko'ra, soliq menejmentining maqsadini aniqlash hamda uni amaliyotga yo'naltirish samarali hisoblanadi.


Takidlash lozimki, soliq menejmentining bosh maqsadi turli sub'ektlar va aholiga davlat tomonidan qonunga asoslangan holda joriy etilgan soliqlar va soliq rejimi vositasida ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotning samarali rivojlanishini ta'minlashga qaratilgandir.

### **3.3. SOLIQ MENEJMENTINING FUNKTSIONALLIGI (SOLIQLARNI REJALASHTIRISH, MUVOFIQLASHTIRISH VA SOLIQ NAZORATI)**

Soliq boshqaruvining yuqorida keltirilgan asoslari uni tizim sifatida kontseptual tasavvur etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Unga ko'ra, soliq menejmenti o'zaro bog'liq va ta'sirda bo'lgan bloklar, bir qancha tizimlardan tashkil topganligi (10-chizma) namoyon bo'ladi. Davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq menejmenti bir necha tizimlar majmuasi ichida etakchi sanaladi.

#### **10-chizma.**

##### **Soliq menejmenti tizimi**



##### **Funktsional soliq tizimlari**

Davlatning umumiy boshqaruvi negizida, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar tizimi ta'sirida, soliq menejmenti soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, uning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish, soliqlarning funktsiyalari va soliqqa tortishning texnologiyalarini aniqlashtirish orqali soliq munosabatlari muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi.

Shunday siyosatning bosh maqsadi tizim infratuzilmasini shakllantirish va mukammallashtirish orqali soliq menejmentining funksionalligini, ya'ni soliqlarni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazoratini samarali uyushtirishni ta'minlashga qaratilganligini ta'kidlash lozim.

Soliq menejmentining etakchiligidagi tizimlar majmuasida soliq munosabatlari va soliqqa tortish jarayoniga rejali, muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi ta'sirlar ko'rsatiladi.

Soliq menejmentining har bir tizimi, o'ziga xos maqsadlariga ko'ra faoliyat yuritadi, aslida, ustuvor maqsad negizida, bir butunlik va o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. Maqsadlar tizimi soliq rejasi, ma'lum bir soliq tartiboti yordamida soliqqa tortish usullarini qo'llash, ularning bajarilishini nazorat qilish orqali maxsus funktsiyalar amal qilishi hamda qarorlar qabul qilinishi iqtisodiy jihatdan asoslanadi va shakllantiriladi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, soliq menejmentining shu tusdagi tizimlarini, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizim tarkibini alohida ajratib ko'rsatish singari shartli hisoblanadi. Rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat tizimlarining funksionalligi o'z harakati doirasida mustaqil amal qiladi. Shu nuqtai nazardan, soliq menejmentining kontseptual asosini o'rganish orqali, uni bir butun ijtimoiy munosabatlar kategoriyasi ekanligini ta'kidlash mumkin.

Soliq menejmenti iqtisodiyot sub'ektlari va aholiga, jamiyatning optimal va samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida, joriy etilgan soliqlar va soliqqa tortish orqali ta'sir ko'rsatishning tizimlashgan jarayonidir.

### **Mavzu bo'yicha xulosalar:**

- soliq menejmenti yaxlit tizim ekanligi ta'kidlandi;
- soliq menejmentining tarkibiy qismlari o'rganildi, ularning o'zaro bog'liqligi ko'rsatildi;
- funktsional soliq tizimi samarali ishlashida soliq menejmentining o'mniga baho berildi;
- soliq menejmentining boshqa boshqaruvi tizimlari bilan o'zaro aloqasi tadqiq etildi.

### **Mavzuning tayanch iboralari:**

boshqarish jarayoni, umum davlat boshqaruvi, soliq tizimi, funktsional soliq tizimlari, soliq menejmenti infratuzilmasi, soliqlarni rejalashtirish, soliqlarni muvofiqlashtirish, soliq nazorati, soliq munosabatlarini boshqarish.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Soliq menejmenti va uning tarkibi.
2. Soliq menejmenti jarayoni.
3. Soliq menejmentiga ta'sir etuvchi omillar.
4. Funktsional soliq boshqaruvi tizimi.
5. Soliq menejmentining boshqa tizimlar bilan o'zaro bog'liqligi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1, 2, 5, 6, 12, 15, 17, 21, 25, 28, 31, 34, 35, 37, 39, 41, 44, 47, 50.

## **IV bob. SOLIQ MENEJMENTI VA UNING ASHKILIY ASOSLARI**

### **4.1. SOLIQ SIYOSATI-SOLIQ MENEJMENTINING ASOSI: O'ZARO ALOQADORLIK VA O'ZARO TA'SIR**

Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda soliqlar va soliqqa tortishni boshqarish tizimi shakllantirildi, uning asosiy tarkibiy qismlarini rivojlantirish jarayoni esa, davom etmoqda. Soliq boshqaruvi integrallashgan, ko'p bosqichli va keng jabhali bo'lib, u davlat boshqaruvining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarining turli darajasi hamda bo'linmalari bilan doimiy o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lgan ma'lum bo'ysunuvchanlik munosabatlari tizimidir.

Soliq boshqaruvini amalga oshirishda davlat o'z soliq siyosatini ishlab chiqadi. Soliq siyosati - bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban, soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan majmuali tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Mamlakat soliq tizimini xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni muvofiqlashtirish kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlardan tashkil topadi.

Hozirgi paytda mamlakatimiz soliq siyosatining asosi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda o'z aksini topayotgan iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyilidir. Aynan, ana shu

tamoyillarga asoslangan soliq siyosati izchil kontseptsiyali mexanizm ekanligini ta'kidlash lozim.

Soliq kontseptsiyasi - bu soliq siyosatini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalari yaxlitligidir. Mamlakatimizda soliq kontseptsiyasi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan chuqur ilmiy asosda ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish kontseptsiyasiga asoslanadi. Agar soliq kontseptsiyasi qanchalik chuqur ilmiy asosga ega bo'lsa, soliq siyosatining barqarorligi ham shunchalik mustahkam ta'minlanadi. O'z navbatida, soliq kontseptsiyasi soliqlar sohasidagi chuqur ilmiy tadqiqot ishlari hamda soliq amaliyotida orttirilgan boy tajriba uyg'unligiga asoslangan bo'ladi.

Shuningdek, soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Soliq kontseptsiyasi amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e'tiborga olib, soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo'linadi.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan, uzoqroq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarning asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa, o'z navbatida, ilmiy asoslangan soliq kontseptsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, mamlakatimizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotga, erkin fuqarolik jamiyatga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa, davlat byudjeti va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarda muayyan uyg'unlikni ta'minlovchi soliq tizimini shakllantirish va ularni mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir. g'ki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi - soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasini belgilab bergen keng qamrovli vazifalarning kelajakda bajarilishini ta'minlash ko'zda tutilgan moliyaviy tadbirlar jamlamasidir.

Soliq siyosati taktikasi esa, belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarilib turuvchi sa'y-harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa

muddatli va kichik ko'lamli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan faoliyat majmuasi sifatida qaraladi.

Soliq siyosati kontseptsiyasi soliq siyosati strategiyasiga nisbatan, soliq siyosati strategiyasi esa soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, ya'ni kam o'zgaruvchan bo'lib, ularning barchasi bir-biriga bog'liq holda, bir-birini to'ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatining mazmun-mohiyatini tashkil qiladi.

Soliq menejmenti tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlarni qonuniy joriy etish;
- amal qilayotgan soliqlarning samarali ishlashini ta'minlovchi mexanizmni shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;
- soliq siyosatini amalga oshiruvchi davlat tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularning ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;
- soliqqa tortish tizimini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va ularni amaliyotga joriy etishni tashkil etish.

## **4.2. SOLIQ MENEJMENTI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI**

Soliq menejmenti davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlari: Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida majmuali tarzda amalga oshiriladi (11-chizma).

Bu hokimiyatlar tomonidan soliq menejmenti quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo'lgan qonunlar qabul qilinadi, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat tomonidan qabul qilinadi.

Ijro hokimiyati bo'lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo'linmalari, Davlat Soliq qo'mitasi, Moliya, Adliya, Iqtisodiyot vazirliklari, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tegishli organlar Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan huquqiy me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlaydi.

## 11-chizma.

### Davlat soliq boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar tuzilmasi



Bunda, albatta, ijro hokimiyatining bir bo'g'ini hisoblangan Davlat Soliq qo'mitasi soliq siyosati ijrosini ta'minlashda alohida o'ringa ega ekanligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, har yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar bo'yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o'zgartirishlar kiritish vakolati Vazirlar Mahkamasiga berilgan. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat bo'g'inlari bilan birga sud hokimiyatining bo'g'inlari ham alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarining o'z vaqtida byudjetga kelib tushishi ustidan nazorat o'rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanadi.

Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan davlat apparatining turli bo'g'inlari faoliyatidagi muvofiqlashtirilganlikka bog'liq. Vakolat har bir organning o'ziga xos rolini belgilaydi va bir vaqtning o'zida, uning boshqa organlar faoliyati bilan muvofiqlashuvini ta'minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan birining hal etilishi, masalan, byudjetni

to'ldirish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy va yuridik hatti-harakatlariga ta'sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo'lgan barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatining muvofiqlashtiruviziz amalga oshmaydi.

Asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to'lovchilarning erkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiyligi ahvoli, uni boshqarish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi. Davlat Soliq qo'mitasi va boshqa soliqlar bo'yicha bevosita hamda bilvosita vakolatga ega bo'lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog'liq huquqlarni ta'minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o'zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsianing 78-moddasi 8-bandi va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga asosan hukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat Soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni hukumatga kiritish huquqi, uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari hukumat ishtiroki bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat Soliq qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Soliq organlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan o'zaro hamkorlik mamlakatda olib boriladigan yagona soliq siyosatini yuritish, soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan boshqa majburiy to'lovlarning hududlar byudjetiga kelib tushishini ta'minlash bo'yicha

vazifalarning bajarilishi natijalarini tahlil qilishda ishtiroki orqali namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda, mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlariga qisqacha to'xtalib o'tish o'rinnlidir. Mahalliy hokimiyat organlari mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq bir qancha vakolatlarga ega bo'lib, ularning o'z hududida joylashgan soliq to'lovchilarga mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha qo'shimcha soliq imtiyozlarini, shuningdek, soliq stavkalari miqdorini Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan eng yuqori stavkalar doirasida belgilash kabi vakolatlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, davlat soliq boshqaruvi davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi. Soliqlar bo'yicha har bir hokimiyat organi maxsus vakolatlarga ega bo'lib, ularning har biri o'z faoliyatlarini samarali olib borishda ulardan foydalanadi. Bunda, vakolatli organlar sifatida, barcha hokimiyat organlari, jumladan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari birgalikda faoliyat ko'rsatadi.

Davlat soliq boshqaruvida etakchilik Davlat Soliq qo'mitasiga berilgan bo'lib, uning quyi bo'limlari nisbatan mustaqil bo'lsada, ierarxiyalı bo'ysinish tartibotida faoliyat yuritadi. Davlat soliq siyosatini amalga oshirishning markaziy sub'ekti - O'zbekiston soliq xizmati soliq qonunchiligining bajarilishini ta'minlaydigan organlar tizimidan tashkil topgan.


Uning asosiy vazifasi soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarining to'liq, to'g'ri va o'z vaqtida byudjetga tushishini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu muhim vazifasini bajarish:

- soliq solish sub'ektlari va ob'ektlarini to'liq, aniq hamda o'z vaqtida hisobga olishni ta'minlash;
- soliq to'lovchilarga soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblashda yordam ko'rsatish;
- nazorat faoliyatini amalga oshirish asosida ta'minlanadi.

Davlat soliq organlari tizimi ko'p darajali pog'ona tarzidagi tashkilot tamoyili bo'yicha barpo etilgan: respublika, viloyat va tuman darajalarini o'z ichiga olgan yagona markazlashtirilgan tizimdan iborat (12-chizma).

## **12-chizma.**

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati tizimi tuzilmasi**




## **4.3. SOLIQ MENEJMENTIDA MUVOFIQLASHTIRISH OMILI**

Muvofiqlashtirish - boshqarish jarayonining eng markaziy funktsiyasidir. Unga ko'ra soliq menejmentining barqarorligi va uzluksizligi ta'minlanadi. Soliq menejmentining muvofiqlashtirish funktsiyasi, uning boshqa funktsiyalari bilan o'zaro aloqadorligi majmuali hisoblanadi (13-chizma).

### **13-chizma.**

#### **Soliq menejmenti funktsiyalarining o'zaro aloqadorligi**



Muvofiqlashtirishning asosiy vazifasi – soliq menejmentining o'zaro birligi negizida kirishuvchanlik aloqalarini ta'minlashga qaratilgandir. Mazkur aloqalar muvofiqlashtiruv jarayoniga ko'ra xilma-xil bo'lishi mumkin, ya'ni:


- hisobotlar;
- yig'ilishlar;
- muloqot - suhbatlar;
- teleks - telefaks;
- tovarlar kartotekasi;
- kompyuter aloqalari;
- axborotlar bankini yaratish - orqali tagtizilmalar o'rtaida o'zaro birgalikdagi faoliyatni muvofiqlashtirish amalga oshiriladi.

Soliq menejmenti darajasini belgilovchi texnologik yuksak va samarali tamoyillar asosida qurilgan o'zaro aloqalar jarayoni, birinchi navbatda, keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

Masalan: ma'lumotlar bilan almashinuv jarayonining eng oddiy modelini ko'rib chiqaylik (14-chizma).

#### **14-chizma.**


#### **Ma'lumotlar bilan almashinuv jarayonining eng oddiy modeli**



Mazkur jarayondagi, navbatdagi yana ikki yo'nalishni aniq o'zlashtirib olish o'ta muhimdir. (Qayta aloqalar va unga halaqit beruvchi to'siqlar). Bu jarayonda yuqoridagi modelning yanada mukammallashtirilishi kuzatiladi. Bunda ma'lumotlar almashinuvi jarayoni ketma-ketlikda kechadi (15-chizma).

#### **15-chizma.**

#### **Ma'lumotlar almashuvi jarayoni - teskari aloqalar tizilmasi sifatida**



Mazkur yo'sindagi aloqalar almashinuvini yo'lga qo'yish jarayonida soliq menejmentida ishonchli, sifatli va foydali ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish imkoniyati yaratildi.

Navbatdagi vazifa, oddiy ma'lumotlar almashinuvidan murakkab tizim sari o'tish hisoblanadi.

Ma'lumotlar almashinuvining murakkab tizimi uni:

- qayta ishslash;
- tahlil etish;
- olingan hisobotlarni yana qayta ishslash jarayonidir.

Soliq menejerining tashkiliy faoliyatni muvofiqlashtirishga qaratilgan harakati bir tomondan, ma'lumotlarni qanday saqlanayotganligi, foydalanilayotganligiga, ikkinchi tomondan, ular bilan ishslashning avtomatlashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi. Bunda axborotlar tartibi yo'riqnomasi (axborotlar banki) yaratiladi. Zamonaviy kompyuterlarni ishlatish soliq menejeri bilimining yuqori bo'lishi, ma'lumotlardan to'la va samarali foydalanishga yordam beradi.

Soliq menejmentida axborotlar (ma'lumotlar) tizimi (banki) ob'ekt-sub'ekt o'rtaсидаги aloqalarga daxldor bo'lib, ular soliq munosabatlarini:

- boshqarishini muvofiqlashtirish;
- boshqaruv jarayonini mukammallashtirish;
- soliqlarni takomillashtirish;
- soliqlarni hisoblash va to'lashni nazorat qilish kabi jarayonlarda keng foydalaniladi.

Rejalashtirish soliq menejmentining strategiyasi hisoblansa, muvofiqlashtirish uning taktik masalalarini hal qilib beradi. Bu funksiyaning asosiy vazifasi oqilona aloqalar o'rnatish yo'li bilan soliq menejmenti tizimining turli qismlari o'rtaсидаги o'zaro aloqadorlikni muvofiqlashtirishni ta'minlashdir.

Muvofiqlashtirish mablag'larni tejash maqsadida soliq menejmentidagi bir-birini takrorlashni bartaraf qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, u tarkibiy bo'linmalar o'rtaсида resurslarni taqsimlash yo'li bilan boshqaruv jarayonlarini amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi. Uning yordami bilan vujudga kelish ehtimoli bo'lgan maqsaddan «og'ish»larning oldi olinadi.

Bu funksiyaning maqsadi «tutib olish», «aybini ochish», «ilintirish» emas, balki menejment ob'ektida sodir bo'layotgan jarayonlarni hisobga olish, tekshirish, tahlil qilish va ma'lum tartibda shu ob'ekt faoliyatini o'z vaqtida sozlab turish hisoblanadi.

Modellashtirish orqali soliq menejmentida kutilmagan xollarning ta'sirini o'zida aks ettirgan modelni ishlab chiqish mumkin (16-chizma) bo'ladi. Bunday model soliq menejeriga, aynan, soliq munosabatlarini boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni muvaffaqiyatli hal etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Umuman, soliq munosabatlarini boshqarishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tizimli yondashuv orqali o'rganish talab etiladi. Bunda nazariy bilimlarni majmuali ravishda o'rganish hamda ulardan amaliyotda mohirona foydalana olish taqozo etiladi.

Meri Perker Follett 1920 yilda "sharoit qonuni" haqida yozib, u «xilma-xil sharoitlar xilma-xil bilimlarni taqozo etadi. Bir sharoit uchun muvaffaqiyatli qo'llanilgan bilimning egasi, agar menejerlik ilmini puxta egallaganman deb o'ylasa, u bir soatlik xalifaga o'xshaydi», – deb ta'kidlagan edi.

Soliq menejmenti jarayoni – funktsional jarayondir, U muntazam yangi g'oyalarni yaratish va amalga oshirish, eskisini takomillashtirib borishni talab qiladi. Shunga ko'ra, vaziyatni modellashtirish orqali soliq menejmenti muvaffaqiyatga erisha oladi. Bunda:

- soliq organlari faoliyatida yuqori samaradorlik ta'minlanadi;
  - soliq organlari holatining barqarorligiga erishiladi;
  - soliq organlari istiqbolining yangi yo'nalishlari, faoliyatining yangi turlari yaratiladi.
- 
- soliq siyosatini puxta ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ladi va boshqalar.

Soliq menejmentida vaziyatni modellashtirish orqali (17-chizma) menejerlik faoliyatni muvofiqlashtirishni yo'lga qo'yish mumkin. Bu esa, soliq organi faoliyatida yuqori samaraga erishish yo'lidir.

#### **4.4. SOLIQ MENEJMENTIDA QARORLAR BAJARILISHINI TA'MINLASHDA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH**

Doimiy takrorlanib turadigan amaliy faoliyat negizida ko'nikma hosil bo'ladi.


*Ko'nikma - faoliyat sub'ektining o'z bilim va malakalari doirasidagi maqsadga muvofiq bajarilishi uchun zaruriy harakatlarning murakkab tizilmasi hisoblanadi.*

Soliq menejmentida ko'nikmani shakllantirish:

- vazifa bilan bog'liq bilimni tanlash;
- vazifaning muhim xususiyatlarini ajratish;
- vazifaning bajarilishiga imkon beradigan o'zgarishlarni aniqlash va amalga oshirish;

## 16-chizma.

### Soliq menejmentida turli holatlar ta'sirini o'zida aks ettiruvchi model



- mazkur o'zgarishlarning natijalarini qo'yilgan maqsadga ko'ra to'g'rilab borish va shular kabi qator jarayonlarni o'z ichiga oladi.

## 17-chizma.

### Soliq menejmentida qo'llaniladigan modellar va ularning tasnifi

	<b>Modelning nomi</b>	<b>Qisqacha tavsifi</b>
	2	3
.	Ko'rgazmali model	Vaziyatni illyustrativ izohlash yo'li bilan unga baho berish.
.	Tahlil modeli	Analitik yo'l bilan, ya'ni shartli chiziqlar, tasniflar, tavsiyalar orqali vaziyat taqqoslanadi. Shu model orqali munosabatlardagi ijtimoiy - psixologik holatga tashhis qo'yish mumkin.
.	Vaziyat orqali tartiblash modeli	Soliq munosabatlarida muloqotga tortilgan sub'ekt, masalani, muammoni hal etishga jalb etiladi. Muomala jarayonida uning bilimi, kasbiy ko'nikmalari ortadi.
.	O'yinlar modeli	Asosiy maqsad: qanday qilib soliqlar to'g'ri va aniq hisoblanishi to'lanishini ta'minlash mumkin? degan savolga qaratiladi. Bu jarayonda yagona maqsad atrofidagi birlik shakllanadi.
.	Iqtisodiy zarar ko'rmaslik tamoyillari modeli	Texnologiya, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, ijtimoiy jarayonlarni o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda o'rganish zaruriyatini, soliq menejmenti samaradorligiga to'g'ri baho berish orqali samarali menejerlik yo'l-yo'riqlari ishlab chiqiladi.

Soliq menejmentida ko'nikmalarga o'rgatish menejerning holatidan kelib chiqqan holda, turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. Bunda quyidagi ikki yo'lni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

birinchi yo'lida: zaruriy bilimlar egasi bo'lgan menejer uchun navbatdagi vazifa kelib chiqqan holda ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalana bilish, tegishli mo'ljalni olish, ularga ko'ra - axborotni qayta ishslash vositalari va faoliyat usullarini qo'llash kabilar orqali to'g'ri echimni topishga harakat qilinadi;

ikkinchi yo'lida, ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida menejerning o'z bilimlarini qo'llashi uchun zarur bo'lgan ruhiy holatini boshqaradi. Bu holatda menejer qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun axborotlarni qayta ishslash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha menejerlar guruhi faoliyatlarini uyushtirib, maqsad sari mo'ljallarni yanada aniqlashtiradi.

Shu tariqa, soliq menejmentida soliq munosabatlarini optimallashtirish yuzasidan birgalikdagi faoliyatida ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmi qaror topadi. Bunday mexanizmning qaror topishi va to'liq ishlashi soliq menejmentida soliqlarni to'g'ri va aniq hisoblash hamda to'lash jarayonini yanada mukammal bo'lishini ta'minlaydi.

### **Mavzu bo'yicha xulosalar:**

- umum davlat boshqaruvi tizimida soliq menejmentining o'rni baholandи va uning vazifalari ko'rsatib berildi;
- soliq menejmenti va uning sub'ektlari atroflicha yoritildi;
- soliq menejmentini tashkil etishda Davlat Soliq xizmati va uning asosiy vazifalari bayon etildi.

### **Mavzuning tayanch iboralari:**

soliq taktikasi, soliq strategiyasi, soliq kontseptsiyasi, soliq siyosati, soliq menejeri sub'ekti, qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyati, mahalliy hokimiyat, vakolat, soliq xizmati, soliq organi

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Soliq menejmentining tashkiliy asoslari.
2. Soliq menejmenti va uning vakolatlari.
3. Soliq menejmentida qonun chiqaruvchi hokimiyatning o'rni.
4. Ijro etuvchi hokimiyatning soliq boshqaruvidagi ishtiropi.
5. Davlat soliq xizmati va uning asosiy vazifalari.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1, 2, 3, 5, 8, 9, 13, 16, 20, 25, 31, 32, 43, 44, 47, 48, 49, 50

# **V bob. TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SOLIQ**

## **MUNOSABATLARINI BOSHQARISH**

### **5.1. SOLIQ MENEJMENTI VA SOLIQLARNI HISOBLASHNING O'ZARO ALOQADORLIGI**

Soliq menejmenti ko'lami va tasnifiga ko'ra aniq bir iqtisodiyot sub'ektiga soliqlarni hisoblash va to'lash borasida zimmasiga yuklatilgan o'z majburiyatlarining bajarishi yuzasidan davlatning soliq munosabatlarini o'zida ifodalaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy oqimlarida soliq to'lovlari sezilarli ulushni tashkil etadi. Bozor munosabatlari rivojlanishi, tadbirkorlik darajasining sifat va son jihatdan o'sish davrida soliq yuki masalasi sub'ektlar faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Iqtisodiyot sub'ektlari tomonidan soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan asosli va to'g'ri qarorlar qabul qilinishi oxir-oqibatda ularning moliyaviy ahvoliga bevosita ta'sir etuvchi omil sanaladi. Soliqlar bo'yicha byudjet bilan hisob - kitoblardagi har qanday xatolikning hisobga olinmaganligi katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Shu o'rinda sub'ektning o'z soliq majburiyatini maksimal kamaytirish, minimallashtirishga bo'lgan legal usullar va yo'llarga asoslangan sa'y-harakati me'yoriy holat ekanligini ta'kidlash lozim.

Yuqorida bayon etilgan holat iqtisodiyot sub'ektlarida soliqlar va soliqqa tortish borasida o'ziga xos boshqaruvning joriy etilishini taqozo etadi.

Amaldagi moliyaviy faoliyat tarkibida soliqlarni hisoblash va to'lash masalasi ayni vaqtida ichki soliq rejalashtirilishini, tahlil, hisob va nazorat bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni keltirib chiqarmoqda. Sub'ektlarda soliqlarni hisoblash va to'lash yuzasidan asosli, to'g'ri qarorlarni qabul qilinishi ularning yakuniy moliyaviy natijalari hamda faoliyati samarasini belgilovchi omilga aylanmoqda.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar shuni ko'rsatmoqdaki, umum davlat hamda alohida olingan iqtisodiyot sub'ekti misolida soliq boshqaruvi aynan bir butun soliqqa tortish jarayoni bilan bog'liq bo'lган ijtimoiy-siyosiy hodisadir. Ammo, bizning nazarimizga ko'ra ularning o'zaro bog'liq hodisa ekanligini ta'kidlagan holda qayd etish lozimki, maqsadlar mohiyati va belgilangan vazifalarga ko'ra soliq sub'ektlari o'zaro munosabatlari o'rtasida ma'lum qarama-qarshiliklar mavjudligi namoyon bo'ladi.

Jamiyatda soliqlar va soliqqa tortishni boshqaruv jarayoni o'zaro ta'sirga ega bo'lган yo'nalishlar ekanligini qayd etgan holda, o'z ko'lamiga ko'ra umum davlat miqyosida soliqlarni boshqarish davlat manfaatlariga xizmat qilishga qaratilganligi, alohida olingan iqtisodiyot sub'ekti misolida esa, aynan uning manfaatlarini o'zida aks ettirganligini ko'ramiz. Shu nuqtai nazardan iqtisodiyot sub'ektlari uchun davlat tomonidan belgilab berilayotgan soliq yuki bo'yicha manfaatlar o'zaro mos emasligini ta'kidlab o'tish lozim. Davlat va alohida olingan iqtisodiyot sub'ekti o'zaro bog'liq bo'lган faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etish soliq qonunchiligiga ko'ra aniqlangan va belgilab qo'yilgan. Xususan, soliq kodeksining me'yoriy talablari davlat hamda alohida iqtisodiyot sub'ekti tomonidan so'zsiz bajarilishi, manfaatlarning o'zaro muvofiq kelishi, munosabatlarning ochiqligi soliq tizimining demokratik ijtimoiy yo'nalishga ega ekanligi va samaradorligini oshirish uchun shart-sharoit yaratadi.

## **5.2. SOLIQ MENEJMENTI INTEGRALLASHGAN RIVOJLANIB BORUVCHI MUNOSABAT SIFATIDA**

Soliq menejmenti integrallashgan, rivojlanib boruvchi munosabatlar sifatida keyingi yillardagi soliq munosabatlarini boshqarish jarayonida yanada faol ta'sirga ega bo'lib, uning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, soliq menejmentining umumiyligi infratuzilmasi tarkibidagi auditorlik, konsalting, shuningdek erkin maslahatchi firmalar soliq to'lovchilarga soliq hisob-kitoblarini amalga oshirish, ularning moliyaviy boshqaruvi hamda soliq organlari bilan o'zaro munosabatlar yuzasidan xizmat ko'rsatmoqda. Dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida soliq to'lovchilari bo'yicha maslahatlar berish taqchil va qimmat faoliyat hisoblanadi.

O'zbekistonda bugungi kunda soliq maslahatchilariga bo'lган ehtiyoj sezilarli ortib borayotgan va umumtan olinayotgan kasbiy faoliyat jahbasi sifatida o'zining shakllanish davrini boshdan kechirmoqda. Soliqlar bo'yicha maslahat berish murakkab jarayon bo'lib, u tashkiliy-huquqiy, uslubiy-etik, psixologik va ma'naviy masalalarda yuqori darajadagi bilimdonlik va ko'nikmalarni talab etadi.

Soliq maslahatini samarali tashkil etish soliqlar va soliqqa tortish tizimini kadrlar bilan ta'minlash masalasini keltirib chiqaradi.

### **Mavzu bo'yicha xulosalar:**

- soliq munosabatlari va ularni amalga oshirishda sub'ektlarning mas'uliyati o'r ganildi;
- korporativ soliq menejmentini tashkil etish asoslari atroficha yoritildi;
- soliq menejmentini tashkil etishda soliq maslahatining o'rniga baho berildi.

### **Mavzuning tayanch iboralari:**

iqtisodiyot sub'ekti, tadbirkolik faoliyati, soliq ko'lami, soliq majburiyati, soliq hisob-kitoblari, soliq oqimlari, soliq yuki, soliq maslahati, audit, soliq menejmenti infratuzilmasi, soliq tizimi samaradorligi

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatida korporativ soliq menejmentining ahamiyati.
2. Soliq munosabatlarini boshqarishning mikrodarajasi va uni tashkil etish.
3. Iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatida soliq menejmentini tashkil etishga ko'maklashuvchi infratuzilmaning roli.
4. Rivojlangan mamlakatlarda soliq menejmentining korporativ boshqaruvdagi o'rni va roli.
5. O'zbekistonda soliq maslahatini yo'lga qo'yish masalasi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

2, 3, 11, 16, 20, 21, 29, 31, 32, 34, 35, 44, 48, 49, 50

## **VI bob. IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHDA SOLIQ BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH**

### **6.1. SOLIQ TIZIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY- USLUBIY JIHATLARI**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimini boshqarishning nazariy-uslubiy va amaliy jahbalarini tadqiq etish e'tibortalab jabha bo'lib qolmoqda.

Soliqqa tortishning nazariy asoslaridan kelib chiqib, soliq siyosatini amalga oshirish bu borada optimal variantni tanlab olishni talab etadi. Xususan, soliq mexanizmi faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish lozim bo'ladi. Ular jumlasiga: mamlakatdagi o'sish sur'atlari yoki ishlab chiqarish pasayishi bilan xarakterlanuvchi, umumiyl iqtisodiy vaziyat; inflyatsiya darajasi; davlatning pul-kredit siyosati; iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o'zgarishlari dinamikasi kabi omillar kiradi.

Bunda, umumiyl iqtisodiy vaziyat, xususan, xo'jalik tizimining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Mamlakatimizni rivojlantirish «O'zbek modeli»da ifodalangan besh tamoyil asosida amalga oshirilmoqda.<sup>1</sup> Ushbu tamoyillar - iqtisodiyotning siyosatga nisbatan ustuvorligi, davlat ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishda bosh islohotchi ekanligi, qonun ustuvorligi va qonunga bo'y sunuvchanlik, aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha ta'sirchan chora- tadbirlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan o'zgarishlarni amalga oshirishda bosqichma-bosqichlikka asoslanish kabilardir.

«O'zbek modeli»ni amalga oshirishning hozirgi bosqichi iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish zaruriyati va imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqdir.

---

<sup>1</sup> Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li//O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T-1.:O'zbekiston, 1996. 300-301b.

Bunda iqtisodiyotni erkinlashtirish alohida o'r'in egallaydi. Uning muayyan shakllari quyidagilardan iborat:

- birinchidan, mulkchilik masalasini tubdan hal etilishi asosida mulkdorlar sinfining shakllanishidir, ya'ni, islohotlar jarayonini amalga oshirishning bosh maqsadini uzil-kesil hal etish zarurdir;
- ikkinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish raqobat muhitini shakllanishi bilan uzluksiz bog'liqdir. Raqobat muhitisiz eng zamonaviy bozor iqtisodiyoti ham samarali faoliyat ko'rsata olmaydi. Monopoliyaga qarshi chora-tadbirlar majmui shunga olib kelishi lozimki, ishlab chiqaruvchilar narxlarni shakllantirishlarida bozor mexanizmi vositasida iste'molchilar talablariga mo'ljal olishlariga erishish lozim bo'ladi;
- uchinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish bozor infratuzilmasini rivojlantirish bilan uzviy bog'langan bo'lib, u tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish, ularning roli va o'mini mustahkamlash, shuningdek, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishga qaratilgandir;
- to'rtinchidan, hozirgi sharoitda birmuncha markazlashgan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarga muvofiqlashtirish, uning o'zaro manfaatli bo'lgan shakllariga o'tish jarayonini jadallashtirish zarurdir. Shu bilan birga mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy kapitalni faol jalg etish uchun huquqiy-iqtisodiy shart-sharoitni yanada takomillashtirish orqali iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, xususiy lashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarida xorijiy investorlarning faol ishtirok etishi, yaratilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish ishiga xizmat qiluvchi omillarning rolini oshirish zarur;
- beshinchidan, valyuta bozorini erkinlashtirish va so'mni to'la erkin konvertatsiya qilish to'g'risidagi masalani izchil hal etish bo'yicha muayyan vazifa bajarilishi ta'minlanmoqda. Bunday sharoitlarda tijorat banklarining uzoq muddatli investitsiya loyihamalariga mos bo'lgan kapital jalg etilishini ta'minlash borasida ob'ektiv ravishda manfaatlari oshdi. Bu esa, mamlakatimiz

iqtisodiyotida nodavlat tarmoq samaradorligi barqaror o'sishini ta'minlashning asosiga aylanmoqda;

- oltinchidan, xorijiy investitsiyani jalg etish bo'yicha rag'batlantirish mexanizmini mustahkamlash, berilgan ta'sirchan kafolat va imtiyozlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi faoliyatni yo'lga qo'yish sa'y-harakatlarini davom ettirish zarur. Bunday sa'y - harakatlarni amalga oshirilishi oqibatida mamlakatimizda o'z biznesiga ega bo'lishni hohlovchi investorlar uchun qulay shart-sharoit ta'minlanadi;

- ettinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirishning pirovard maqsadi albatta, eng avvalo, davlatning turli nazorat organlari tomonidan iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatiga aralashuvini cheklash bilan bog'liqdir. Ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish jarayoni sub'ektlarning o'z faoliyat natijalari uchun iqtisodiy-moliyaviy javobgarliklarini oshirishni ham taqozo etadi.

Iqtisodiy erkinlashtirish jarayonida kichik biznes va tadbirkorlik yalpi ichki mahsulot shakllanishida hal etuvchi bo'g'in sifatida bandlik hamda mamlakatda milliy farovonlikni ta'minlashning muhim omiliga aylanadi<sup>1</sup>.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada erkinlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar majmuasi to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita soliqqa tortish jarayonlari bilan ham bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan samarali soliq siyosatini amalga oshirish - mazkur erkinlashtirish jarayonining zaruriy omili hisoblanadi.

Albatta, birinchi navbatda, iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy o'zgarishlari sub'ektlarning investitsiyaga oid qarorlarni qabul qilishlari hamda ushbu qarorlarda samaradordik mezonlari qanday belgilanganligi ta'sirida bo'lsada, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu jarayon soliq mexanizmi faoliyati bilan ham to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir, aynan soliq tizimini rivojlantirish ahamiyatli omil hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Qarang: Karimov I.A. Nasha viss haya tsel – nezavisimost, protsvetanie Rodini, svaboda, blagopoluchie naroda. Doklad na pervoy sessii Oliy Majlisa Respubliki Uzbekistan Vtorogo soziva 22 yanvarya 2000 g. –T «O'zbekiston», 2000; Karimov I.A. Utverjdenie duxa predprinimatelstvo v obshchestve zalog progressa: Vistuplenie na zasedanie Kabineta Ministrov po itogam pervogo polugodiya 2001 goda//Narodnoe slovo №140 ot 18.07.01

Bugunning muhim vazifasi - islohotlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishdir. Buning uchun mamlakatimizda ijtimoiy rivojlanishning muhim ustuvorliklari belgilangan.<sup>2</sup>

Xususan, ustuvor yo'nalishlardan biri - bu bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va uning infratuzilmasini shakllantirish, barqaror, muvozanatlashgan iqtisodiyotni yaratish uchun muhim shart-sharoit sifatida erkin iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishdir.

Bunda, kichik biznes va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaratishda etakchi o'rinnegallashini ta'minlash, shuningdek, u fuqarolar daromadlarining asosiy manbaiga va mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosiga aylanishi lozim.

Ayni vaqtda xorijiy, birinchi navbatda, xususiy investitsiyalarini jalb etish uchun zaruriy investitsion iqlimni yaratish va iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash orqali ishlab chiqarishni yangilash, eksport salohiyatini oshirish va import almashinuvini yo'lga qo'yish uchun kafolatlar tizimini yaratish nazarda tutiladi. Ichki va tashqi investitsiyalar, avvalo, iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirilishi, valyuta zaxiralari iqtisodiy barqaror o'sish uchun safarbar etilishi lozim.

Mazmun-mohiyat jihatidan bu sa'y-harakatlar soliq tizimini takomillashtirishning strategik asosini tashkil etadi.

Iqtisodiy erkinlashuvni ta'minlash nuqtai - nazardan, soliqqa tortishning eng ma'qul darajasi yuridik va jismoniy shaxslarga shunday jami soliq yukini taqozo qiladiki, bunda soliqlar tadbirkorlik va investitsiya faoliyatları, shuningdek, aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirga ega bo'lmasdan, balki aksincha, ayni vaqtda byudjet tushumlarining zaruriy hajmini ham ta'minlash omiliga aylanadi.

---

<sup>2</sup> Qarang: Karimov I.. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. –T.: O'zbekiston, 2003. 3-52 b.

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida, mutaxassislar makroiqtisodiy darajadagi soliqlar pasayishida investitsiya samarasini baholashga urinib ko'rdilar<sup>1</sup>. Bu hol aralash iqtisodiyotda ma'lum vaqt oralig'ida samarali qo'llanilishi mumkinligini amaliy tajriba ko'rsatmoqda.

Orttirilgan amaliy tajribaga asoslanib, mazkur holatni formal tahlil etadigan bo'lsak, ochiq iqtisodiyotdagi milliy hisoblarning aynanligiga murojaat qilish asoslidir. Mantiqiylikka rioya qilgan holda YaIM real hajmini uy xo'jaliklari iste'moli, ichki investitsiyalar, hukumat xaridlari, eksport va import, xususiy tarmoqda soliqlar to'langandan keyingi qolgan daromadlar byudjetga soliq tushumlarini xarakterlaydi.

Xususiy sektordagi haqiqiy jamg'armalar, davlat sektoridagi haqiqiy jamg'armalar, eksportning importga nisbatan real oshishi, ya'ni chegaradan tashqarida ayrboshlash natijasida sof eksportdan olinadigan summa aniqlanadi.

Bunda shunday xulosa qilish mumkinki, investitsiyalar ichki jamg'armalarning ma'lum qismini tashkil etib, sof eksportdan tushumlar chiqarib tashlanadi.

Biroq, haqiqatda yana ikkita turli yo'nalishdagi kapital mablag'lar harakat oqimi ichki investitsiyalar hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi: sof chiqib ketish, kapitalning chegaradan chiqib ketishi, sof oqib kelish va real aktivlarni sotib olinishi bilan bog'liq.

Agarda davlat va xususiy sektordagi jamg'armalarning jami summasi (sof eksport tushumlaridan tashqari) mamlakatga xorijiy kapitalning oqib kelishi hamda oqib chiqib ketishiga nisbatan ortib borganda iqtisodiyotda real investitsiyalar ahamiyatli o'ringa ega bo'ladi.

Xususiy sektordagi investitsiyalar, jamg'armalar, soliq tushumlari va soliqqa tortish umumiylar darajasi kapital oqib chiqishini o'zaro bog'liqligini ifodalaydi va bu uzlucksiz jarayondir, davlat sarf-xarajatlari va tashqi iqtisodiy

---

<sup>1</sup> Qarang: Dagaev A. Privedet li snijenie nalogov k uvelicheniyu investitsiy?//Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya, 1, 2001 –s.65-68

faoliyat sub'ektlarining amaldagi sof eksporti uchun to'lov tushumlari, mamlakatdagi soliqqa tortish darajasiga bog'liq emas.

Daromadni soliqqa tortish darajasi qandayligi iqtisodiyotga investitsiyalarni maksimallashtirish imkonini beradi.

Soliqqa tortish stavkasining o'sishi xususiy sektordagi jamg'armalar kamayishiga olib keluvchi omil sanaladi. Xuddi shuningdek, chet el investitsiyalari ham soliqqa tortish o'sishi bilan kamayadi yoki eng qulay bo'lgan holda unga bog'liq bo'lmaydi.

Kapitalning chiqib ketishi ko'proq darajada aynan soliqlar o'sishi oqibatida yuzaga keladi.

Byudjetga soliqlar tushumi stavkalar o'sishi bilan muayyan chegaragacha oshadi, keyin esa, kamaya boshlaydi. Byudjetga soliqlar tushumi o'sishi soliqqa tortish darajasi o'zgarishiga ko'ra tavsiflanadi.

Investitsiyalarning maksimal darajasidagi soliqqa tortish stavkasi soliqlarning maksimal darajadagi tushumini ta'minlaydi.

Shunday qilib, soliq siyosatini amalga oshirishda ustuvorlikni tanlash (byudjetning maksimal to'ldirilishi yoki investitsiyalarning maksimal darajasi) lozim bo'ladi.

O'zbekistonda islohotlarning hozirgi bosqichida ustuvorlikni erkinlashtirishga berish maqsadga muvofiqdir, xususiy tarmoqda investitsiyalarni maksimallashtirish sharoitida byudjet to'ldiruvchanligi qisqaradi.

## **6.2. SOLIQ MENEJERI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

Soliq menejerini quyidagi qirralarda o'rganish maqsadga muvofiqdir:

- tarjimai holining tavsifnomasiga ko'ra (soliq menejerining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishida tarjimai hol tavsifnomasining ham o'ziga xos roli bor);
- qobiliyati va iste'dodiga ko'ra;

Soliq menejerining qobiliyati va iste'dodi quyidagi ikki ko'lamni qamrab oladi:

- umumiy (intellekt);
- maxsus (bilim, qobiliyat va shunga o'xshash).

Samarali menejerlikni ta'minlashda qobiliyat va iste'dod umumiy jihatining ahamiyati (18,19-chizmalar) quyidagilardir:

- |  |  |
|--|--|
| <ul style="list-style-type: none"><li>• menejer qobiliyati va iste'dodi</li><li>• menejer tajribasi</li><li>• Guruh bilan munosabati</li></ul> | <ul style="list-style-type: none"><li>• menejer motivatsiyasi</li><li>• Yuqori mansabdalar bilan munosabati</li><li>• menejerlik samaradorligi</li></ul> |
|--|--|

### **18-chizma.**

#### **Soliq menejerining umumiy sifati va menejerlik samaradorligi o'rtaisdagi o'zaro aloqadorlik**

menejer qobiliyati va iste'dodi	menejer motivatsiyasi	menejer tajri-basi	Yuqori mansabdalar bilan munosabati	Guruh bilan munosabati	menejerlik samaradorligi
---------------------------------	-----------------------	--------------------	-------------------------------------	------------------------	--------------------------


••• shaxsiy fazilatlariga ko'ra. Soliq menejerining shaxsiy fazilatlari ham samarali faoliyatni yo'lga qo'yishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ular quyidagilardir:

- ta'sirni o'tkaza olish;
- o'ziga ishonch;
- ijodkorlik;
- his-hayajon holatlarida vazminlik;
- stressga bardoshlik;
- maqsadga erishishga intilish kuchliligi;
- mustaqillik;
- muloqotda ochiqlik;
- mas'uliyatni his etish va boshqalar.


#### **19-chizma.**

#### **Soliq menejeri qobiliyatining maxsus jihatlari**



Mazkur talablarga to'liq javob bera olgan soliq menejeri o'z imiji yuqori bo'lishiga erisha oladi(20-chizma).

### **Soliq menejeri oldiga qo'yiladigan talablar majmuasi**



